

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**



**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

«TASDIQLAYMAN»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, i.f.n.,
dotsent _____
F.B.Ahrorov

«____» _____ 2014 yil

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrası

5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Uzum ishlab chiqarish rentabelligi va uni oshirish imkoniyatlari”
(Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari misolida)**

**Bajardi: 5610100-«Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi
4-bosqich talabasi
Shodmonov**

Ulugbek

Ilmiy raxbar: dotsent

Sh.Sattarov

**Bitiruv malakaviy ish
muhoqama qilindi va himoyaga
ruxsat berildi**

**Kafedra mudiri, i.f.d., professor
_____ O.Murtazayev
«____» _____ 2014 yil**

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
2. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH RESURLARINING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI.....	13
2.1. Yer resurslari va ulardan oqilona foydalanish.....	13
2.2. Moddiy-texnika resurslari va ulardan oqilona foydalanish.....	22
2.3. Mehnat resurslar va ulardan oqilona foydalanish.....	30
3. FERMER XO'JALIKLARIDA UZUM ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI VA UNING HOZIRGI HOLATI	38
3.1. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.....	38
3.2. Uzum ishlab chiqarish rentabellikning hozirgi holati tahlili	46
3.3. Uzumchilikda rentabellikning omilli tahlili	50
4. UZUM ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	54
4.1. Uzum ishlab chiqarishda moddiy xarajatlarni pasaytirish imkoniyatlaridan foydalanish.....	54
4.2. Fermer xo'jaliklarida uzum xosildorligini oshirish imkoniyatlari.....	58
4.3. Uzum yetishtirish va uni saqlashning iqtisoliy samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	61
5. FERMER XO'JALIKLARIDA UZUM ISHLAB CHIQARISH DA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH.....	66
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Bugun dunyo bo'ylab aholi soni yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Bu o'z navbatida aholining iste'mol tovarlariga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining ham o'sishiga olib kelmoqda. Bu muammo dunyoning barcha mamlakatlari oldiga aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini ustuvor vazifa qilib qo'ymoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti, xususan, qishloq xo'jaligining barcha jabhalarida qo'lga kiritilayotgan bugungi zalvorli yutuqlar Prezidentimiz Islom Karimovning rahnamoligida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinayotgan keng ko'lamli islohotlar mahsulidir.

Ma'lumki, har qaysi jamiyatda rivojlanish qaysi bir iqtisodiy tizim asosida yaratilishidan qat'i nazar, pirovard vazifa qilib aholini ijtimoiy faravonligini oshirishga qaratiladi. Mamlakatimizda ham qishloq xo'jalik sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi tufayli uzum ishlab chiqarish va uni qayta ishlash korxonalarining faoliyatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bugun mamlakatimiz agrar tarmog'ida bozor tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan agroiqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, yetishtirilgan mahsulot va mol-mulkka xususiy egalik qilgan holda, yer uchastkalaridan uzoq muddatli ijara asosida foydalanib ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, samarali natijalarga erishib kelayotgan fermer xo'jaliklarining soni tobora ortib bormoqda.

Aytish kerakki, yurtimizda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Samarqand azaldan uzumlari bilan dong taratgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida viloyatning barcha tumanlarida uzumchilikni rivojlantirish, bu sohani qishloq iqtisodiyotining muhim yo'nalishiga aylantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirilib, salmoqli natijalarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 13 martdagi «Respublikada 2013–2015 yillar davomida uzumchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, tokzorlar maydonlarini kengaytirish, uzumchilikning ilmiy bazasini mustahkamlash, yangi istiqbolli va serhosil navlarni joriy etish, shuningdek, uzumni qayta ishlash hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini ko'paytirish borasidagi vazifalar belgilab berilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjatga asosan respublika bo'yicha 2015 yilga qadar 22,5 ming gektar yangi tokzorlar barpo etish hamda 15,7 ming gektar yaroqsiz tokzorlarni qayta rekonstruksiya qilinadi.

Jumladan, joriy yilda viloyatimizda tok ko'chatlari va mevali daraxtlar ko'p ekildi. Yangi ekilgan ko'chatlarga alohida e'tibor qaratib, parvarish ishlarini o'z vaqtida olib borish talab etiladi.

Ishtixon tuman fermer xo'jaliklarida har gektar ekin maydonidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari, fan texnika yutuqlarini joriy qilish, foydani oshirish to'g'risida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot tannarxni pasaytirish uchun mahalliy xom-ashyo va materiallardan foydalanish darajasini oshirish, materiallar sarfi me'yorlarini pasaytirish kabi asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Fermer xo'jaliklarda uzum ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan birga, uning sifatini yaxshilash, tannarxini pasaytirish, sotishdan olinayotgan foyda miqdorini ko'paytirish xo'jaliklar oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda mahsulot tannarxini pasaytirish, olinayotgan foyda miqdorini ko'paytirish bilan birga, fermer xo'jaliklarlarini iqtisodiyotini mustahkamlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini oshishiga olib keladi.

Uzum ishlab chiqaradigan fermer xo'jaliklari va u bilan bevosita bog'liq qayta ishlash tarmoqlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali

qishloq va shaharda mehnatga yaroqli aholidan samarali foydalanish orqali aholi turmush darajasining ko'tarilishiga real sharoit yaratiladi. Lekin, fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda 1 s uzum ishlab chiqarishga sarflanayotgan moddiy resurslar samarali foydalangan holda uni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarini kamaytirish, tayyorlanadigan uzum mahsulotlari sifatini oshirish va sotish baholarini takomillashtirish hamda fermerlarning moddiy manfaatdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi – Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarish rentabelligini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- fermer xo'jaliklarida resurslar bilan ta'minlanish holatini tahlil qilish;
- fermer xo'jaliklari iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- fermer xo'jaliklari samaradorlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish;
- fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarish rentabelligini hozirgi holati tahlilini o'rganish;
- fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarish rentabelligini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish;

Mazkur malakaviy bitiruv ishining obyekti Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari misolida o'rganilgan.

Malakaviy bitiruv ishida Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarining 2011-2013 yillar hisobotlaridan, rejalaridan, birlamchi uchyot hamda tahlil ma'lumotlaridan, mutaxasislarning xulosalaridan foydalanilgan. Bu ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish ahamiyati hisoboti, kurs ishlari bajarilgan va himoya etilgan.

Mazkur ishda O'zbekistonda turli davrlarda chap etilgan monografik ishlardan, kitoblar hamda maqolalardan foydalanishga xarakat etilgan. Quyi qismda nazariy va uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan maxsus adabiyotlarga sharh yozishga harakat qilingan.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarish rentabelligini oshirish doimo olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Uzum ishlab chiqarish rentabelligini oshirish qator iqtisodchi olimlarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Ammo uzumni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonlari bilan bog'lagan qolda o'rganish bozor munosabatlarining shakllanishi va takomillashuvi jarayonida aloqida e'tiborni talab qiladi. Shu jihatdan, qator olimlarning mamlakatimizda uzum ishlab chiqarish rentabelligini oshirish borasidagi qator olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Qishloq xo'jaligi va bevosita uzumchilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy samaradorlik va uning rentabelligini oshirish masalalari bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.A.Abdug'aniyev, A.M.Qodirov, A.Q.Ismoilov, A.M.Jo'rayev, F.J.Jo'rayev, O.Murtazayev, Q.A.Choriyev, A.A.Shokirov, F.Q.Qayumov, M.Q.Husanov, R.Q.Husanov, R.Ergashev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari tarmoq samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Quyida malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida foydalanilgan ayrim adabiyotlarga sharh berib o'tamiz:

Chop etilgan ayrim adabiyotlarga sharh berib o'tamiz.

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (Yangi tahrirda). // Xalq so'zi, 26.08.2004.

Ushbu qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat bo'lib, unda fermer xo'jaligini tashkil etish, ularning huquqlari, majburiyatlari hamda mol-mulki, faoliyatining tashkil etilishi, davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash, tugatish asoslari ko'rsatilib o'tilgan.

Qonunning 16-moddasida fermer xo'jaligining xuquqlari ko'rsatilgan bo'lib, bunga ko'ra fermer xo'jaligi zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijaraga olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlashi ko'rsatilib o'tilgan.

2. Karimov I. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 28.01.2010.

Ushbu ma'ruzada o'tgan yil –Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili deb e'lon qilinishi va Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, imtiyozlar berish, qishloqda shakllanadigan yangi mulkiy munosabatlarni, o'rta tabaqa–mulkdorlarning, tadbirkorlarning va ishbiarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilishga e'tibor berilishga alohida e'tibor qaratiladi.

3. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 19.01.2013.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining nutqida YaIMning o'sishiga va fermer xo'jaliklarini jadal rivojlanishi mavzusiga to'xtalib o'tadi. Mazkur nutqda ham, jumladan, shunday fikrlarni bildirib o'tadi: “....Fermerlarimizning ongu tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan-yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi – odamlarimizning ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgarmoqda, bebaho boyligimiz bo'lgan yer va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlarini sezilarli ravishda kengaytirdi.

Shu bilan birga, tan olish kerakki, fermerlik harakatining Fermer xo'jaliklari uyushmasi shaklidagi tashkiliy tuzilmasi qishloq xo'jaligini isloh etish va sohada

ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fermerlar oldida turgan vazifalarni hal etish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.

Fermerlik o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida Fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimi, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga yer uchastkalarini uzoq muddatga ijaraga berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashlarining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas».

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 18.01.2014.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining har bir nutqida qishloq xo'jaligining hozirgi xolati va uning barqaror rivojlanishi mavzusiga takror-takror to'xtalib o'tadi. Mazkur nutqda ham, jumladan, shunday fikrlarni bildirib o'tadi: "...Ruxsatingiz bilan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga alohida to'xtalmoqchiman.

Avvalo, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi

ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Fursatdan foydalanib, bugun mana shu yuksak minbardan turib, o'zining peshona teri, qadoq qo'llari bilan mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgan, el-yurtimiz farovonligini ta'minlayotgan barcha qishloq mehnatchilariga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik va hurmat-ehtirom bildirishni ham qarz, ham farz, deb hisoblayman".

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. -№54. 5.02.1999.

Ushbu Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

6. Azizqulov B. Ilg'or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№9. -35-b.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muallif sifatli urug', biologik vositalar, tejamkor suv texnologiyalari, moddiy resurslarni tejash hisobiga erishish mumkinligini bayon etgan.

7. Bo'stonov K. Mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda inson omili // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2011. -№12. -33-b.

Hozirgi kunda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda mavjud sarf-xarajatlarni kamaytirish muhim hisoblanadi. Bu sarflarga mehnat sarflari ham kirib, ularni kamaytirgan holda kadrlar malakasini oshirib borish muxim hisoblanadi. Bunda mualliflar fermerlar va dehqonlar malakasini oshirib borish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligiga e'tibor qaratishgan.

8. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

Mazkur darslikning 15-bobi «Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning umumiy masalalari» deb nomlanib, unda samara haqida jumladan shunday deyiladi:

«Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilganda, «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» termini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan – ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi».

9. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Axrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. – Samarqand, N.Doba, 2009.

O'quv qo'llanmada mamlakatda agrar siyosatning mohiyatiga to'xtalib o'tilgan. Agrar siyosat mamlakat hukumatining agrar sohada olib borayotgan islohotlarining mazmunidir. Agrar siyosat o'zida qishloq aholisini moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar siyosatning aniq vazifalariga quyidagilar kiradi:

- mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini ta'minlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish.

10. Qudratov T.Q. Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili. - Samarqand, 2010.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni yanada samarali rivojlantirish uchun ularning faoliyatini barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlar va ularning natijalarini har taraflama chuqur o'rganish natijasida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni ishlab chiqarishga jalb etish bo'yicha yo'l-

yo'riqlarni ko'rsatish zarur. Ushbu muammolarni hal qilishda iqtisodiy tahlilning roli nihoyatda kattadir.

11. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. - 416 b.

Darslikda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti fanining nazariy va amaliy asoslari kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida bayon etilgan bo'lib, agrar iqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning erkin bozor shakllariga o'tish va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar salmog'i o'sib borishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslangan. Qishloq xo'jaligida mavjud yer-suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, qishloq xo'jalik korxonalarining barqaror shakllanishi, iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilinib, istiqbolda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror sur'atda rivojlanish yo'nalishlari ochib berilgan.

2. FERMER XO'JALIKLARIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

2.1. Yer resurslari va ulardan oqilona foydalanish

O'zbekiston Respublikasi 447,4 mln. gektar yer maydoniga ega. Respublika qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarining 81 foizi yoki 26,6 mln. gektarini yaylov va pichanzorlar tashkil etadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 16 foizi haydaladigan yerlardir. Mamlakatning lalmikor yerlari 6,6 mln. gektar. Shundan 3,0-3,2 mln. gektari haydaladi va ularda lalimi dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Qolgan qismidan namlikning juda kam bo'lganligi sababli foydalanilmaydi. Yuqoridagilardan xulosa shuki Respublikada mavjud yer maydonlaridan maksimal foydalanishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida fermer xo'jaliklari yuritish uchun beriladigan yer uchastkalari foydalanish manbalari ko'rsatilib o'tilgan. Ya'ni:

- zaxira yerlardan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan;
- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan;
- qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan beriladi.

Respublika yerining bir qismi shaharlar va aholi punktlari, bir qismi transport va kommunikasiyalar, daryo va suv havzalar bilan band yerlar, o'rmon xo'jaligi yerlari, harbiy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar va davlat zahira fondidan iborat. Biz uchun eng muhimi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisoblanadi. Respublikaning yer manbalari cheklangan va u qishloq xo'jaligi tarmog'ida foydalanadigan resurs sifatida kamayib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayin etilgan yerlarga haydaladigan yerlar, yaylovlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar kiradi.

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) Yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlaguncha ko'paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to'g'ri yo'l – mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir. Bundan tashqari sanoatning, kommunikasiyaning o'sishi aholining ko'payishi tabiiy holda bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydoni qisqarishiga olib keladi. Qolaversa, insoniyat yerdan to'g'ri foydalanmasligi oqibatda ularning qishloq xo'jaligi aylanishidan chiqib ketish hollari ham yuz bermoqda. Taraqiyotning tuproq eroziyasi, sho'r bosish, kasalliklarga chalinish kabi salbiy oqibatlarini kamaytirish har bir davlatning, yerdan foydalanuvchilarning birinchi galdagi vazifasidadir.

2) Yer – tabiat mahsuli. Bu ham bizning oldimizga qator vazifalarni qo'yadi. Uni yaratishda inson mehnati aralashmagan. Albatta bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib yerning bahosi shakllanadi. Lekin bu baho uning haqiqiy narxi qancha ekanligini aniq belgilay olmaydi. Yerni oldi-sotdi jarayonlarida bu xususiyatlarni hisobga olish lozim. Bozor munosabatlarining rivojlanishi yerni oldi-sotdi obyektiga aylantiradi. Bundan tashqari yerlarni iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish uchun qishloq xo'jaligidan ajratib beryotganda uning narxini bilish ijobiy ahamiyatga ega. Imkoni boricha qishloq xo'jaligidan yer boshqa sohalar uchun ajratilganda past unumli, qishloq xo'jaligi uchun qimmatli past yerlardan ajratish maqsadga muvofiq. Shu sababli yerning bozor narxini aniqlash tartibi mavjud. Yerning narxi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yern = \frac{Yerr}{Sf} \times 100$$

Bunda: Yern – yerning narxi, so'm;

Yerr – yer rentasi, so'm;

Sf - ssuda foizi.

3) Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Bu degani yerdan o'z bilganimizcha abadiy foydalanish mumkin degani emas. Balki yerdan to'g'ri va oqilona foydalangandagina u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun abadiy bo'lishi mumkin. Yerdan noto'g'ri foydalanish esa uning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqsiz holga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, 2005 yilning 1-avgusti ma'lumotlariga qaraganda birgina farg'ona vodiysida 2000 yilda mavjud bo'lgan 366 ming gektar sug'orilib dehqonchilik qiladigan yerlarning 9 ming gektari ekin ekish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan.

4) Turli joylarda mavjud yer maydonlari turli sifatga, ya'ni unumdorlikka ega. Yerning tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorligi bir – biridan farqlanadi. Tabiiy unumdorlik – yerning inson aralashuvisiz tabiat tomonidan vujudga kelgan hosil bera olish qobiliyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sun'iy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublika yerlarining tabiiy unumdorligi pasayib bormoqda. Tuproqda mavjud bo'lgan gumus moddasining pasayishi kuzatilmoqda. Buning oldini olishning asosiy yo'llari yerga dam berish, yerlarning holatini hisobga olib qishloq xo'jalik yekinlarini joylashtirish, yerga organik o'g'itlarni (har bir gektarga kamida 15 tonnadan) solish, sug'orishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish zarur. Tabiiy va sun'iy unumdorlik birgalikda (ularnig yig'indisi) iqtisodiy unumdorlik tushunchasini beradi.

5) Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin emas. Demak qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni yaxshilash uchun har bir xo'jalik hududida qanday sifatga ega yer bo'lsa shunga qarab ekin turlarini joylashtirish lozim. Bu xususiyat qishloq xo'jaligi korxonalariga faoliyat uchun o'rnatiladigan soliq tizimini ishlatishda ham hisobga olinishi talab qilinadi.

Bularning barchasi mavjud yerlarda qaysi ekin turlarini joylashtirish, texnikaning qanday turlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning hajmi qanday bo'lishi maqsadga muvofiqligi to'g'risida inkor etib bo'lmaydigan talablarni keltirib chiqaradi.

Yer to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Davlat yer kadastrida mujassam etiladi. Davlat yer kadastrida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yerdan foydalanuvchilarni davlat ro'yxatiga olish;
- yerni miqdor va sifat jihatdan uchetga (hisobga) olish;
- yerni baholash (tuproq bonitirovkasi va iqtisodiy baholash).

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi ekan, undan qanday (samarali, samarasiz, yaxshi yoki yomon) foydalanayotganligimizni bilishimiz zarur. Yerdan foydalanishning darajasi, samaradorligini aniqlashning usullari olimlar tomonidan yetarli darajada chuqur o'rganilgan. Iqtisodiy fan qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ikki guruhga bo'lib o'rganadi. Birinchi guruhga yerdan foydalanish darajasini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

1) Yer fondining tarkibi (strukturasi). Jami yer maydonida qishloq xo'jaligiga yaroqli (qishloq xo'jaligiga tayin yetilgan) yerlarining salmog'i, (foizlarda ifodalanadi). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Qx.yer.sal. = \frac{Qx.te.yer}{J.yer.m} \times 100$$

Bunda: $Qx.yer.sal.$ – qishloq xo'jaligiga yaroqli yer salmog'i, %

$J.yer.m.$ - jami yer maydoni, ga

$Qx.te.yer.$ - qishloq xo'jaligi uchun tayin etilgan yer maydoni, ga

Bu ko'rsatkich mavjud yer maydonlarining qancha qismi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli (yoki qishloq xo'jaligiga tayin etilganligini) ekanligini bildiradi. Turli xo'jaliklarning, mamlakat va regionlarning umumiy yer maydonlari bir miqdorda bo'lishiga qaramasdan qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli bo'lgan maydonlari turlicha bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlari kam miqdorda bo'lgan davlatlar, region va xo'jaliklar bu masalaga alohida qarashlari zarur. Ular har bir gektar yerni avaylab asrashi va qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlarga o'tib ketishini juda qattiq nazoratga olishlari zarur bo'ladi. Mamlakat, mintaq (hudud) va xo'jaliklarda yerlarni qishloq xo'jaligidan boshqa

tarmoqqa o'tib ketishi faqatgina davlat zarurati, imkonsiz hollarda yoki juda katta samara keltirishi mumkin bo'lgan holatlardagina amalga oshirilishi kerak.

2) Qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini ko'rsatadi. Jumladan, jami qishloq xo'jaligi yerlarida haydaladigan yer salmog'i quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Qx.yer.tar. = \frac{Qx.yer.turlari}{JQx.yer.m.} \times 100$$

Bunda: Qx. yer. tar – qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi, %

Qx. yer turlari - qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni, ga

JQx yer m. - jami qishloq xo'jaligi yer maydoni, ga

Xo'jalikda haydaladigan, ayniqsa (tabiati issiq o'lkalar sharoitida) sug'orilib dehqonchilik qiladigan yerlarning ulushi qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi (samarali) hisoblaymiz. Olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, 1 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yer 5-7 gektar lalmi yerga teng mahsulot berar ekan. Boshqacha qilib aytganda, 1 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan 6-7 gektar lalmi yerga teng. Agarda yer maydonlarining cheklanganligini, har bir ga yerni haydash, ekish, ishlov berish va hosilni yig'ib olish harajatlarini hisobga olsak sug'oriladigan yerlarning naqadar qadr-qimmatini yuqori ekanligini ko'ramiz. Demak, imkon darajasida sug'orilib dehqonchilik qilinadigan maydonlarini asrash zarurati kelib chiqadi. Bozor sharoitida u boshqa yerlarga nisbatan qimmat turadi. Demak, unga narx belgilashda, boshqa maqsadlar uchun ajratganda yoki soliq yukini belgilaganda, bu omilni hisobga olib zarur bo'ladi.

3) Yerdan foydalanish koeffitsiyenti (martaliligi). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.k. = \frac{Xem, ga}{Jem, ga}$$

Bunda: Yerf k – yerdan foydalanish koeffitsiyenti, marta

Xem, ga. - haqiqatda ekilgan ekin maydoni, ga

Jem, ga - jami ekin maydoni, ga

Ushbu ko'rsatkich har bir mamlakat, hudud va xo'jaliklarda bir biridan keskin farq qiladi. Uning darajasi mamlakatning rivojlanganlik darajasi, aholining va yer maydonlarining miqdori kabi ko'plab omillar ta'sir etadi.

Natural ko'rsatkichga qishloq xo'jaligi yekin turlarining hosildorligi kiradi. Hosildorlik quyidagicha aniqlanadi.

$$X = \frac{Yax}{Em., ga}$$

Bunda: X – ekin turlarining (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) hosildorligi, s/ga

Yax - yalpi (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) hosil, s

Em, ga - ekin (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) maydoni, ga

Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlash maqsadga muvofiq:

1) Yer maydoni birligi hisobiga olingan yalpi mahsulot, so'm. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.s. = \frac{Yam., so'm}{J.e.m., ga}$$

Bunda: Yerf.s. – yerdan foydalanish samaradorligi, so'm

Yam – yalpi mahsulot, so'm

J.em. - jami ekin maydoni, ga

Bu ko'rsatkich doimo o'sib borsa ijobiy rivojlanish hisoblanadi. Albatta uning darajasiga juda ko'plab omillar (iqtisodiyotning, texnologiyaning rivojlanganlik darajasi, inflyasiya darajasi, ekin turlari va mahsulotlarga shakllanadigan narxlar darajasi....) ta'sir etadi.

2) Yer birligi hisobiga olingan foyda miqdori, so'm. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.s. = \frac{J.f., so'm}{J.e.m., ga}$$

Bunda: Yerf.s. – yerdan foydalanish samaradorligi, so'm

J.f. –jami olingan foyda (yoki sof foyda), so'm

J.em - jami yekin maydoni, ga

Ushbu ko'rsatkich natijalari ham o'sib borgan holdagina ijobiy sanaladi. yer birligi hisobiga olingan foyda miqdoriga ta'sir qiladigan omillar juda ko'p.

O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga: davlat jamoa xo'jaligi, ilmiy-tekshirish, o'quv va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, shuningdek alohida fuqarolar, dehqon xo'jaliklari va kooperativlarning yerlari kiradi. Bundan tashqari boshqa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, ijtimoiy va diniy tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar ham kiradi.

2. Aholi punkti yerlariga shahar, posyolka va boshqalarning yer maydonlari kiradi. Uy-joy fondi, parklar va boshqa madaniy-maishiy obyektlarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa qishloq xo'jaligiga taaluqli bo'lmagan tarmoqlar yerlari. Ular zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil transporti, aloqa, mudofaa obyektlari va boshqalarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

4. Tabiatni muhofaza qilish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar-alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar.

5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar.

6. O'rmon fondi yerlari. O'rmon bilan band yerlar, shuningdek, o'rmon xo'jaligi zaruriyati uchun mo'ljallangan yerlar.

7. Suv fondi yerlari. Suv havzalari, gidrotexnik, suv xo'jalik inshootlari, shuningdek, suv havzalari qirg'oqlari kiradi.

8. Davlat zahira yerlari. Bu yerlar hozircha hych kimga egalik qilishga va uzoq muddatli foydalanishga berilmagan. Ular asosan mamlakatning kam aholi

yashaydigan tumanlarida joylashgan va yangi korxonalar tashkil qilish uchun foydalaniladi, vaqtincha foydalanishga ajratiladi.

Respublikamizning umumiy yer fondi 44,8 mln. ga ni tashkil etadi, shundan 27,9 mln. ga yoki 62,3% qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardir. Shu yerlarning 4 mln. 474 ming ga yoki 15,95% haydaladigan yerlardir. Yer fondining 5-6 mln. gektari dehqonchilikda foydalaniladi Ulardan 4,2 mln gektari sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 1,6 mln ga cho'l zonasida, qolgan qismi suvli mintaqada joylashgan. Shu sug'oriladigan yerlarning 3 mln.ga ekinzordir.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy o'simlikchilik mahsulot ekinlari yalpi hosil dinamikasi 2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishini 2.1.1-jadvalda ko'rib chiqamiz.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yil 2011 yilga nisbatan g'allachilikda yalpi xosil 55521 s.ga oshishi ekin maydoning 510 gektarga va xosildorlikning 3 s.ga oshishi hisobiga yuz berganbo'lsa, paxtachilikda yalpi xosil 10296 s.ga oshib, ushbu oshish xosildorlikning 2,4 s.ga oshishi hisobiga yuz bergan. Ammo, xo'jaliklarda paxta ekin maydoni -510 ga kamayishi ko'zatilgan.

Umumiy xolda olganda Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy o'simlikchilik mahsulot ekinlari 2013 yil 2011 yilga nisbatan -824 ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

2.1.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy o'simlikchilik mahsulot ekinlari yalpi hosil dinamikasi tahlili*

Ekin turlari	Yillar									2013 yilni 2011 yilga nisbatan o'zgarishi (+, -)		
	2011			2012			2013					
	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, s	Ekin maydoni hisobiga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, s	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, s	Ekin maydoni hisobiga, ga	Hosildorlik hisobiga, s/ga	Yalpi hosil bo'yicha, s
G'alla	6930	65,1	451143	7680	66,1	507648	7440	68,1	506664	510	3	55521
Paxta	10240	25,6	262144	9490	28,7	272363	9730	28	272440	-510	2,4	10296
Sabzavot	960	180,1	172896	570	432,5	246525	371	184,9	68598	-589	4,8	-104298,1
Kartoshka	41	253,5	10393,5	41	245,1	10049	42	144,8	6081,6	1	-108,7	-4311,9
Poliz	371	282	104622	371	265	98315	135	101	13635	-236	-181	-90987
Meva	735	134	98490	735	120,9	88862	735	78,2	57477	0	-55,8	-41013
Uzum (xosildor yerlar)	3170	126,5	401005	3170	123,2	390544	3170	82	259940	0	-44,5	-141065
Jami	22447	X	X	22057	X	X	21623	X	X	-824	X	X

*Manba: Ishtixontuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2013-2011 yil ma'lumotlari.

2.2. Moddiy-texnika resurslari va ulardan oqilona foydalanish

Qishloq xo'jaligikorxonalarida moddiy – texnika resurslar deganda majmua tarmoqlarida, uning xo'jalik yurituvchi subyektlarida mavjud barcha asosiy fondlar, xo'jalik inventarlari yig'indisi tushuniladi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, ayniqsa, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizasiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, demak, qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi turgan gap. Birgina shu misolning o'zi ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati qanchalik katta yekanligini ko'rsatadi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun, asosiy fondlar, xomashyolar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatlari bo'lishi va ular birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga "Keys", "Magnum" kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Oz bo'lsa-da, fermer va dehqon xo'jaliklarida kichik texnikalar paydo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnika bazasi boshqa tarmoqlarnikidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining tarkibiga yer kiradi. Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etishi bizga ma'lum. Yerning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish zarur. Yerning holatiga qarab o'g'it turlari, o'g'itning miqdori, texnikalarning turi va boshqalar tanlanadi. Agarda yerning meliorativ holatlarini qisobga olmasdan ekin turi, ma'danli o'g'itlar, unga ishlov

beradigan texnikalar tanlansa, ishlab chiqarishning natijasi past bo'lishi turgan gap. Ba'zi hollarda yerga bunday munosabatda bo'lish uning ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tabiat qonunlariga boshqa tarmoqlarnikiga nisbatan ko'proq bog'liq. Buning natijasida turli mintaqalarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanish zarurati kelib chiqadi. Shimoliy zonalarda ekin turlari janubiy zonalardagidan farq qiladi. Shimoliy zonalarda issiq kunlarning nisbatan kam bo'lishi, eng avvalo, qisqa muddatlarda pishib yetiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy hududlarda esa ekin turlarini tanlash imkoniyatlari kattaroq. Bunday holatlar esa moddiy-texnika resurslarining turli mintaqalarda turlicha bo'lishini talab qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi oqibatida ayrim texnika vositalari yilda bir necha kun yoki oy ishlatiladi, xolos. Masalan, don o'rish kombaynlari asosan o'rim – yig'im davrida 2 oy ishlatiladi. Yer qazish ishlarida ishlatiladigan yekskovatorlar ham bunga misol bo'la oladi. Qishloq xo'jalik korxonalari qimmatbaho texnikani (kombaynlarni) yil davomida saqlashga majbur. Bu esa katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Natijada, asosiy fondlardan, texnikalardan foydalanish samaradorligi pasayadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar (chorva mollari, ko'p yillik mevali bog'lar, uzumzorlar va boshqalar) tashkil yetadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni ham hisobga olishni talab etadi. Aks holda natija past bo'lishi mumkin. Bu xususiyatni hisobga olmaslik xo'jaliklarda mavjud texnikada, fondlardan foydalanish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ishlab chiqarish keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi, yo'l va aloqa kommunikasiyalari bo'lishini talab qiladi. Texnikalarni bir maydondan ikkinchisiga olib borish, ularni ta'mirlashni tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarini

tashkil etishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu xususiyat katta qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi ko'p jihatdan sanoatning rivojlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga moddiy-texnika resurslarining (yem-xashak, zotli chorva mollari, urug'liklar kabilar) bir qismi qishloq xo'jaligining o'zida ishlab chiqariladi. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning sotib olinayotgan va o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy-texnika resurslariga mos ravishda taqsimlanishini talab qiladi. Aks xolda ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatgichlari pasayishi mumkin.

Hozirda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining mexanizasiyalashganlik darajasini oshirish, asta-sekinlik bilan uni sanoat asosiga o'tkazish borasida ishlar olib borilayapti. Bu qishloq xo'jaligi taraqqiyotining obyektiv yo'nalishlaridan biridir.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish potensialining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasini kengaytirish qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish birlamchi ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva ozuqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Ayni paytda ASMDa foydalanilayotgan ishlab chiqarish fondlari jami xalq xo'jaligi fondlarining 35-40% tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish fondlari jamoa mehnatining jamg'arilishi bir yo'la to'la aylanish — ya'ni ularni pul shaklidan moddiylashgan buyum shakliga, moddiylashgan buyum shaklidan tovar shakliga, tovar shaklidan pul shakliga aylanish - davrida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida

iqtisodiy ahamiyatiga, qo'llanish usullariga va xizmat qilish muddatiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Har bir qishloq xo'jalik korxonasining fondlar bilan ta'minlanganligi ishlab chiqarishning to'g'ri va soz olib borilishi garovidir.

Hozirgi vaqtda amaldagi klassifikasiyaga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy (natural) xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi;

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshootlar, o'zatuvi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar).

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi asosan: kelib chiqishi, moddiy-ashyoviy turi, faoliyat turi, mulk shakllari, xo'jalik subyektlari taqsimoti, amalda foydalanish imkoniyatlari va boshqalarga qarab amalga oshiriladi. Moddiy resurslar qaytimi koeffitsiyentini aniqlash uchun ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini shu mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar hajmiga bo'lish kerak:

$$KMQ = \frac{YaM}{MX}$$

bunda, KMQ – moddiy resurslar qaytimi koeffitsiyenti (ko'rsatkichi)

YaM – yetishtirilgan yalpi mahsulotlar hajmi (summasi)

MX – moddiy xarajatlar summasi.

Bu koeffitsiyent 1 dan katta bo'lsa, iste'mol qilingan moddiy resurslardan foydalanish samarali bo'lganligini, agar past bo'lsa – ishlab chiqarish moddiy zarar bilan ishlayotganligini bildiradi.

Moddiy resurslar sig'imi ko'rsatkichi bir so'mlik ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy (material) xarajatlar summasi ifodalaydi. Moddiy resurslar sig'imi moddiy resurslar qaytimining aksini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichni materiallar sig'imi deb ataladi. Materiallar sig'imi darajasi qancha past bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi, boshqacha aytganda 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi oshib boradi. Bu xo'jalik iqtisodiyotining, qolaversa mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanishi va mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasini yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmiga (summasiga) bo'lish orqali aniqlanadi.

$$KMC = \frac{MX}{YaM}$$

bunda, KMS – material sig'imi koeffitsiyenti

MX – yalpi mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasi;

YaM – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati.

Moddiy resurslar rentabelligi sarf bo'lgan moddiy xarajatlarning har bir so'mi hisobiga olingan foyda summasini bildiradi.

Moddiy resurslar rentabelligini aniqlash uchun mahsulot sotishdan olingan foyda summasini sarf bo'lgan moddiy resurslarning jami summasiga bo'lmoq kerak:

$$KMP = \frac{YaF}{MX}$$

bu yerda, KMR – moddiy resurslar rentabelligi koeffitsiyenti;

YaF – mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda;

MX – sarf bo'lgan moddiy resurslar hajmi.

Moddiy resurslar rentabelligi iste'mol qilingan moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biridir.

Bu koeffitsiyent qancha yuqori bo'lsa moddiy sarflardan foydalanish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi, demak, samaradorlik darajasi oshadi. Boshqacha aytganda 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga olingan foyda oshgan sayin, xo'jalikni moliyaviy ahvoli ham mustahkamlanib boradi.

Modiy resurslar xarajati - bu koeffitsiyent hisobot davrida sarf bo'lgan haqiqiy moddiy resurslar hajmining me'yor bo'yicha hisoblangan hajmiga yoki bazis davrida iste'mol qilingan moddiy resurslarning hajmiga nisbatan tejalganligini yoki ortiq xarajat bo'lganligini bildiradi. Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun hisobot davrida sarf bo'lgan haqiqiy material resurslar summasini hisobot davrida yetishtirilgan mahsulot miqdoriga nisbatan me'yor bo'yicha hisoblab olingan shartli material xarajatlar summasiga (yoki bazis davridagi xarajat darajasi bo'yicha hisoblab olingan shartli xarajatlar summasiga) bo'lish kerak.

$$KMF = \frac{MX_1}{MX_f}$$

bu yerda, KMF – moddiy resurslardan foydalanish koeffitsiyenti;

MX_1 – hisobot davrida yetishtirilgan mahsulot uchun sarf bo'lgan haqiqiy materiallar summasi;

MX_{sh} – shartli material xarajatlar summasi (hisobot davrida yetishtirilgan mahsulot hajmiga nisbatan me'yor bo'yicha hisoblab olingan yoki bazis davridagi mahsulot birligi uchun bo'lgan xarajat darajasi bo'yicha hisoblab olingan xarajatlar summasi).

Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsiyenti 1 dan past bo'lsa, moddiy xarajatlarning tejalganligini, 1 dan katta bo'lsa – ortiqcha xarajat sodir bo'lganligini bildiradi.

Sarf bo'lgan moddiy resurslarning tannarxdagi hissasi - Bu ko'rsatkich mahsulot tannarxining necha foizi iste'mol qilingan moddiy resurslarga to'g'ri kelishligini bildiradi.

Sarf bo'lgan moddiy resurslarning tannarxdagi hissasi qancha past bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni 1 so'm moddiy xarajat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oshadi.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy fondlar qiymatining o'zgarishini 2.2.1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida 2011 yilda jami asosiy fondlar qiymati 21546,0 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, shundan binolar 6162,2 mln so'm yoki 28,6 foizni, inshootlar 1723,7 mln so'm yoki 8,0 foizni, uzatish moslamalari 904,9 mln so'm yoki 4,2 foizni, mashina va uskunalar 6076,0 mln so'm yoki 28,2,0 foizni, mebel va ofis jixoslari 258,6 mln so'm yoki 1,2 foizni, kompter va xisoblash texnikalari 387,8 mln so'm yoki 1,8 foizni, transport vositalari 3102,6 mln so'm yoki 14,4 foizni, mahsuldor xayvonlar 344,7 mln so'm yoki 1,6 foizni, ko'p yillik o'simliklar 732,6 mln so'm yoki 3,4 foizni va boshqa asosiy vositalar 1853,0 mln so'm yoki 8,6 foizni tashkil qilgan.

2013 yilda esa jami asosiy fondlar qiymati 23347,0 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, shundan binolar 6583,9 mln so'm yoki 28,2 foizni, inshootlar 1867,8 mln so'm yoki 8,0 foizni, uzatish moslamalari 980,6 mln so'm yoki 4,2 foizni, mashina va uskunalar 6607,2 mln so'm yoki 28,3 foizni, mebel va ofis jixoslari 326,9 mln so'm yoki 1,4 foizni, kompter va hisoblash texnikalari 466,9 mln so'm yoki 2,0 foizni, transport vositalari 3618,8 mln so'm yoki 15,5 foizni, mahsuldor xayvonlar 490,3 mln so'm yoki 2,1 foizni, ko'p yillik o'simliklar 770,5 mln so'm yoki 3,3 foizni va boshqa asosiy vositalar 16343,3 mln so'm yoki 7,0 foizni tashkil qilgan.

Vaholanki, 2013 yil 2011 yilga nisbatan asosiy fondlar qiymati 1801,0 mln so'mga oshgan. Shundan binolar 421,7 mln so'mga, mashina va uskunalar 531,2 mln so'mga, mebel va ofis jixoslari 68,3 mln so'mga, kompter va xisoblash texnikalari 68,3 mln so'mga, transport vositalari 516,2 mln so'mga, mahsuldor xayvonlar 145,6 mln so'mga, o'zlash moslamalari 75,6 mln so'mga oshgan bo'lsa, boshqa asosiy vositalar 218,7 mln so'mga kamaygan.

2.2.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy fondlar qiymatining o'zgarishi*

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar						2012 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011		2012		2013		+/-	%
		Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %		
1.	Bino	6162,2	28,6	5910,6	27,9	6583,9	28,2	421,7	106,8
2.	Inshoat	1723,7	8	1673,6	7,9	1867,8	8	144,1	108,4
3.	Uzatish moslamalari	904,9	4,2	868,6	4,1	980,6	4,2	75,6	108,4
4.	Mashina va uskunalari	6076,0	28,2	5995,4	28,3	6607,2	28,3	531,2	108,7
5.	Mebel va ofis jixozlari	258,6	1,2	275,4	1,3	326,9	1,4	68,3	126,4
6.	Kompyuter va xisoblash texnikasi	387,8	1,8	402,5	1,9	466,9	2	79,1	120,4
7.	Transport vositalari	3102,6	14,4	3241,3	15,3	3618,8	15,5	516,2	116,6
8.	Maxsuldor xayvonlar	344,7	1,6	381,3	1,8	490,3	2,1	145,6	142,2
9.	Kup yillik usimliklar	732,6	3,4	699,1	3,3	770,5	3,3	37,9	105,2
10.	Boshka asosiy vositalar	1853,0	8,6	1737,2	8,2	1634,3	7	-218,7	88,2
	Jami	21546,0	100	21185,1	100	23347,0	100	1801,0	108,4

*Manba: Samarqand viloyat Ishtixon tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013 yillar ma'lumotlari

2.3. Mehnat resurslari va ulardan oqilona foydalanish

Respublikamiz aholisining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishda jonli va buyumlashgan mehnatning ahamiyat muxim. U qiymatni yaratadi, qolaversa, insonning ongli–maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. U bilan mehnat predmetlari hamda vositalari uyg'unlashgan holda ish jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonning mahsuli qiymat hisoblanadi. Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga yega bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish, xizmatlarni bajarish insonning jonli faoliyati (mehnati) bilan mehnat predmetlari va vositalarining maqsadga muvofiq bog'lanishiga bog'liq. Ya'ni, inson mehnati + yer + traktor + chigit (urug') + yoqilg'ilar ijobiy bog'lanishi natijasida paxta yoki bug'doy va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Ularning miqdori, sifati bevosita yuqoridagi omillarga bog'liq. Lekin inson va uning ongli faoliyati bo'lmasa hech qanday mahsulot yaratilmaydi, ish yoki xizmat bajarilmaydi. Shunday ekan, faqat inson o'zining ongli faoliyati bilan mahsulotlarni yaratadi, ishlarni, xizmatlarni bajaradi.

Xo'jaliklarda mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy sharoitning (harorat, yog'in va issiq kunlar miqdori) ahamiyati katta. Ishlab chiqarish inson mehnati hamda mehnat predmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda samrali uyg'unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma'lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon bir qancha mehnat jarayonlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, ekinlar yekiladigan yerlarni haydash, ekishga tayyorlash, yekish, suv berish, ishlov berish, hosilni terib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, insonning ongiga, bilimiga, malakasiga, munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bog'liq. Demak, inson o'z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samarali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiati ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligida mehnat tarmoqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xususiyatlarga ega:

- mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog'liqligi;
- mehnatdan foydalanishga ishlab chiqarish mavsumiyligining ta'sir qilishi;
- qishloq xo'jaligidagi mehnatning o'simliklar hamda tirik mavjudotlar (hayvonlar, o'simliklar) bilan uzviy bog'langanligi;
- qishloqdagi mehnat saviyasi va bilim darajasining nisbatan pastligi;
- o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilganlik va mexanizasiyalashtirilganlik hamda elektrlashtirilganlik darajasi pastligi;
- tarmoqda tor doiradagi ixtisoslashishning kamligi;
- qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mehnat tarkibida ayollar va yoshlar mehnati salmog'i (hissasi) ning ko'pligi;
- qishloq xo'jaligida mehnatga to'lanayotgan haq va uning ijtimoiy himoyalaniishi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan pastligi va boshqalar.

Ta'kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta'sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har xil darajada ixtisoslashgan xo'jaliklarda bir xil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har xil miqdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham bir-biridan farq qiladi. Kech kuz, qish va erta bahorda mehnat sarfi keskin kamayib, hosilni yig'ib olishda unga bo'lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. O'simchilik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko'pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab yetmaydi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat tarkibida ayollar mehnatining salmog'i hozirgi davrda ancha yuqori. Shuning uchun ham tarmoqda mehnatga to'lanayotgan haq kamroq. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, chikanka qilish, hosilni yig'ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, sog'ish) to'liq mexanizasiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat xarajatlari ortadi. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolarni mehnat resurslari deb ataladi. Ularning huquqiy asoslari tarkibi hamda faoliyati Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Mehnat kodeksi»da (04.1996y), «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (05.1998y) qonunda batafsil ko'rsatilgan. Mehnat resurslari 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 55 yoshgacha bo'lgan ayollar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar ham mehnat resursi sanaladi. Ularning tarkibida iqtisodiy faol mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni 16-55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar tashkil yetadi. Ular mehnat resurslarining asosini tashkil etadi.

Mehnat resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslarining eng faol omili sifatida katta ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonida ongli ravishda qatnashib, ko'proq, sifatliroq mahsulotlarni talabni qondiradigan miqdorda yetishtirishga, ish va xizmatlarni bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan, ulardan yil davomida to'liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

a) Mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti. Uni aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qatnashgan mehnat resurslari miqdorini (kishi) xo'jalikda shartnoma (buyruq) bo'yicha mavjud bo'lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MK = \frac{\sum IMr}{\sum MMr}.$$

Bunda: M_k – mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti;

$\sum IMr$ – haqiqatda ishlagan jami mehnat resurslari, kishi;

$\sum MMr$ – mavjud bo'lgan jami mehnat resurslari, kishi.

Bu ko'rsatkichning darajasi birga yaqin bo'lgani yaxshi. Shunda u mavjud mehnat resurslaridan foydalanish yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

b) Mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi (1 oyda, 1 yilda). Uning miqdorini xo'jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtni sarflangan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin.:

$$MrXqk = \frac{\sum Mrsv}{\sum IMr}.$$

Bunda: $MrXqk$ – mehnat resurslarining ma'lum bir muddatda o'rtacha ishlagan ish vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$\sum Mrsv$ – mehnat resurslarining jami sarflagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu ko'rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo'lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo'yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta'til (otpuska) kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikada yillik ish vaqti fondi 276-286 kun miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O'smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zarur ishlarni bajaruvchilar uchun ham o'rnatilgan.

d) Belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti ham aniqlanadi. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soatini) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo'lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$IVfk = \frac{MrIv}{MrIn}.$$

Bunda: $IVfk$ – ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti;

$MrIv$ – mehnat resurslari hisoblangan bir kishining bir yilda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

MrIn – bir kishi uchun qonunda belgilangan, ishlashi lozim bo'lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu koeffitsiyentning miqdori birdan oshmasligi kerak. Agar u qanchalik kam bo'lsa, bu mehnat resursi foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi.

e) Mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti. Uning miqdorini bir yil, bir oy mobaynida eng ko'p ish kunini shu davrdagi eng kam ish kuni miqdoriga taqsimlash natijasida hisoblash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$Mm = \frac{IoElk}{IoKlv}.$$

Bunda: Mm –mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti;

IoYeIk – bir yildagi yoki oydagi eng ko'p ish kuni;

IoKlv – bir yilda yoki oydagi eng kam ish kuni.

Uning miqdori ham 1-1,2 atrofida bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda uning miqdori 2-2,3 ga teng bo'lmoqda. Bu mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida bir me'yorda qatnashmayotganligidan dalolat beradi. Bu holni yumshatish zarur. Buning uchun kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxona o'zi ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin.

f) Mehnatning unumdorligi darajasi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami ish vaqti miqdorini shu davrda ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga, qiymatiga hamda bajarilgan ish hajmiga taqsimlash zarur. Bu mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabi.

Amaliyotda esa u haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash natijasida aniqlanmoqda. Bunday usulda ular bir-birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Ularni aniqlash uchun ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$Mu = \frac{Sv}{Em} \ddot{e}_{ku} \frac{Em}{Sv}$$

Bunda: Mu–mehnatning unumdorlik darajasi, kishi-kuni, soati, so'm;

Sv–mahsulot yetishtirish, xizmat ko'rsatish uchun sarflangan ish vaqti, kishi-kuni, soatda;

Yem–sarflangan vaqt ichida yetishtirilgan mahsulot, s, so'm.

Bu ko'rsatkich yetishtirilayotgan bir birlikdagi (sen, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha vaqt sarflanganligini yoki sarflangan bir birlikdagi vaqt evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Mahsulot birligiga sarflangan jonli mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat evaziga yetishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida ayrim ish, mahsulot turlari, davrlari hamda xo'jalik miqyosida natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Shunga asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va sarflanishi zarur bo'lgan mehnatning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

Tarmoq miqyosida mamlakat qishloq hududlarida yashayotgan aholining qanday salmoqqa yegalligi, qishloq xo'jaligida bandligi ham aniqlanishi mumkin. Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini qishloq hududlarida yashayotgan umumiy aholi miqdoriga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish kerak. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar -16 dan 60

yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga:

- doimiy;
- mavsumiy;
- vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
- o'smirlar;
- nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddatsiz ishga qabul qilinganlar.
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar.
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.

Ishtixon tumani joylashuv jihatidan qulay iqtisodiy-jo'g'rofiy hududda joylashganligi sabab, doimiy o'sib boruvchi mehnat resurslari manbalariga ega. Ma'lumotlar asosida fermer xo'jaliklarida mehnat resurslarini tahlil qilamiz (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari mehnat resurslari tahlili* (kishi)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011	2012	2013	+/-	%
1.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	16461	15799	15542	-919	94,4
2.	Sh.j.: xotin-qizlar	9127	8794	8684	-443	95,1
-	salmog'i, %	55,4	55,7	55,9	0,4	x
3.	Doimiy ishchilar	7585	7513	7657	72	100,9
-	salmog'i, %	46,1	47,6	49,3	3,2	x
4.	Yollanma ishchilar	8189	7601	7188	-1001	87,8
-	salmog'i, %	49,7	48,1	46,2	-3,5	x
5.	Rahbar xodimlar	687	685	697	10	101,5
-	salmog'i, %	4,2	4,3	4,5	0,3	x
6.	O'rtacha 1 xo'jalik a'zosi	31	29	26	-5	85,1
7.	Fermer xo'jaliklari soni	538	538	597	59	111,0

*Manba: Ishtixon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida xodimlar soni 2013 yilda 15542 kishi bo'lib, 2011 yilga nisbatan - 919 kishi yoki 5,6 foizga kamaygan. Bu o'zgarish xo'jaliklarda doimiy ishlovchilar soni 72 kishiga, raxbar xodimlarning 10 kishiga oshishi, yollanma ishlovchilar sonining -1001 kishiga kamayishi hisobiga yuz bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, 2013 yil 2011 yilga nisbatan tuman fermer xo'jaliklari sonining 59 taga oshishi hisobiga doimiy ishlovchilarning sonining ham oshishiga olib kelgan.

Umumiy olganda bu raqamlar qishloq xo'jaligidagi mavjud ortiqcha mehnat resurslarining boshqa sohalarga ko'chirilayotganligini bildiradi.

3. FERMER XO'JALIKLARIDA UZUM ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI VA UNING HOZIRGI HOLATI

3.1. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi etapdagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Bir tomonda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish oziq-ovqat va xom ashyoga bo'lgan talabning o'sib borishi va qiyinlashishi, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Boshqa tomondan, hozirgi etapdagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatda to'plangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning aktivligi, ularning tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy qiziqishining o'sishi o'simchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytiradi va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilganda, «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» termini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan –

ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara»- qishloq xo'jalik mahsulotlari shaklida(natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda sferasida esa iqtisodiy, shuningdek xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi sosial o'sish bo'lishi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs(xarajatlar)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurs(xarajat)lar turli samara berishi mumkin. Shuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurslar(xarajatlar) bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, samara(natija) deb atalgan absolyut miqdor bilan bir qatorda yana bir absolyut miqdor – qo'llanilgan yoki iste'mol qilingan resurslarni(joriy ishlab chiqarish xarajatlari) hajmini bilish zarur.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samaraning (natijaning) resurslarga(xarajatlarga) nisbati yoki aksincha usul bilan aniqlanadi:

$$IS = \frac{S(n)}{R(x)}; \quad \frac{R(x)}{S(n)}$$

Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday bahodagi resurslar hisobiga iqtisodiy samaraga erishilganliging bildiradi. Samara qancha katta va xarajat shuncha kichkina bo'lsa, ishlab chiqarish iqtisodiy samadorligi shuncha katta bo'ladi va aksincha. Resurslar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida ma'lum bir aloqa mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lishi mumkin: jonli va buyumlashgan. Jonli mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning absalyut miqdori resurslar (xarajatlar) sifatida, ular miqdorining kamayishi va ularni tejash – iqtisodiy samara shaklida ko'rinadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mohiyati, uning kriteriyasi va ko'rsatkichlari orqali amalga oshadi.

Mezonning ilmiy tushunchasi ma'lum bir belgi, baho o'lchovini ifodalaydigan asosiy sifati uning muhim xossasidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning

iqtisodiy samaradorligi mezonini jamiyatga kerak bo'lgan yer maydoni birligidan chiqadigan qishloq xo'jalik mahsulotining olinishi shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tejamliligi va yuqori sifatini ta'minlashdir.

Ko'rsatilgan mezon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadiga – tarmoq mahsulotiga aholining o'sib borayotgan talabini to'laroq qondirishga javob beradi va uning yutuqlari yo'lini – ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va intensivlashtirish asosida sistemali ravishda ishlab chiqarishni pasaytirishni aniqlab beradi. Shu bilan birga bu mezonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyati eng avvalo yer resurslari bilan mustahkam aloqasini aks ettiradi.

Xalq xo'jaligi samaradorligi oziq-ovqatga bo'lgan iste'molini qondirish, sanoatning xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, tarmoqni umumdavlat, xalq xo'jalik topshiriqlari va muammolarini hal qilishda moliyaviy hissassi nuqtai nazaridan baholanadi. Tarmoq samaradorligi resurslar potensialidan foydalanishda, xalq xo'jaligining shu tarmog'ida samara (natija) va resurs (xarajat) o'rtasidagi erishilgan nisbatning natijasini aks ettiradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimizdagi boshqa tarmoqlar singari fermer xo'jaliklarida ham rentabellikning oshib borishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalarning foydalilik yoki zararlilik darajasini belgilash uchun rentabellik ko'rsatkichidan foydalaniladi. Rentabellik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini o'zida aks ettiruvchi umumlashgan ko'rsatkich hisoblanadi. U foydalanilgan va iste'mol kilingan ishlab chiqarish resurslari - mehnat, yer-suv, moddiy hamda ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish xarajatlari orqali yetishtirilgan mahsulotdan olingan samaraning miqdori va sifatini, ishlab chiqarishni kengaytirilgan tarzda rivojlantirish imkoniyatini, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy manfaatdorligini aks ettiradi. Rentabellikda mutloq ko'rsatkich - bu foydadir. Foyda - bu realizatsiya qilish natijasida olingan sof daromadning qismi bulib, u mahsulot sotishdan keladigan mablag'dan - sotilgan mahsulotni ishlab

chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni yoki to'la tannarxini qiymatini chiqarib tashlangan qismiga teng bo'ladi:

$$F = PT - TT$$

Bunda: F- foyda,

PT-pul tushumi,

TT-tula tannarx

Foyda – bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati va boshqa xarajatlar asosida yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qiladi. Foydada, shuningdek buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarning kamayishi, baho o'zgarmagan holda foydani ko'paytiradi va nihoyat bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. O'lchash vazifasi - foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi.
2. Taqsimlash vazifasi - qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.
3. Rag'batlantirish vazifasi - iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbai sifatida.

Qishloq xo'jalik tarmog'i korxonalari rentabelligi yalpi va sotilgan mahsulot bo'yicha mutloq va nisbiy shaklllarda hisoblanadi. Foyda massasini aniqlash uslubi «Foydani hisoblash nizomi» bo'yicha olib boriladi yoki 2-«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

1. Yalpi foyda(zarar) - qishloq xo'jalik korxonasida tovar mahsulotini sotishdan olingan pul tushumi, ya'ni sof pul tushumidan sotilgan tovar mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi olib tashlanadi. Bunda sof pul tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat soligi, aksiz solig'i, tashkariga chiqarilgan

tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkalarini (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT$$

YaF - yalpi foyda, SST - sof pul tushumi, IT - ishlab chiqarish tannarxi.

2. Korxona asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajatlar (davriy xarajatlar) ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari va xarajatlari ham mos ravishda qo'shilib va chiqarib tashlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ$$

AFF- asosiy faoliyat foydasi, DX-davr xarajatlari, BD- boshqa daromadlar, BZ – boshqa zararlar.

3.Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar). Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)dan olingan dividendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valyutaning ko'rs farki, boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar qo'shilib, xarajatlar va bank prosentlari ayriladi.

$$UF = AFF + MD - MX$$

UF- umumxo'jalik foydasi, MD- moliyaviy daromadlar, MX- moliyaviy xarajatlar.

4.Soliq to'laguncha foyda(zarar) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ$$

STF-soliq to'langungacha bo'lgan foyda, FP-favqulodda olingan foyda, FZ- favkulodda olingan zarar.

5. Sof foyda(zarar). U soliq to'langandan keyin xo'jalik subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad(foyda)dan to'lanadigan solig'ini va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlangan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS$$

SF-sof foyda, DS- daromad solig'i, BS-boshqa soliqlar

Foydaning mutloq hajmi korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini o'zida to'la aks ettirmaydi. "Korxonaning moliyaviy tahliliga doir uslubiy tavsiyalar (instruksiya)" bo'yicha rentabellikning 5 ta moliyaviy koeffitsiyentlari keltirilgan.

1. Mahsulot sotishning rentabelligi koeffitsiyenti sotilgan mahsulot birligiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent narx belgilash siyosatidagi o'zgarishlarni va xo'jalik yurituvchi subyektning sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilib turish qobiliyatini ko'rsatadi. Uning pasayishi turli sabablarga ko'ra korxona mahsulotlariga talabning pasayganligini ko'rsatadi.

$$R_{m.s} = \frac{F(Z)}{T} < 0$$

bunda $F(Z)$ -sotishdan olingan foyda(zarar)
 T -pul tushumi

Agar mahsulot sotish rentabelligi koeffitsiyenti hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

1. Asosiy vositalar va oborotdan tashkari boshqa aktivlarning rentabelligining koeffitsiyenti asosiy vositalar va oborotdan tashkari boshqa aktivlardan foydalanish samaradorligini aks ettiradi, ya'ni qishloq xo'jalik korxonasining moliyaviy xo'jalik faoliyatida ishlatadigan aktivlardan foyda yoki zarar ko'rish darajasini ko'rsatadi:

$$R_{av} = \frac{SF(Z)}{A1} < 0$$

bunda, $SF(Z)$ -solliqqa tortishga kadar bo'lgan foyda(zarar)
 $A1$ -uzokmuddatli aktivlar

Agar aktivlarning rentabelligi koeffitsiyenti (zararlilik ko'rsatkichi) hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

2. Xususiy kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Koeffitsiyent dinamikasi korxona aksiyalari kotirovka darajasiga ta'sir qiladi. Bu koeffitsiyent darajasi investisiya qilgan kapitaldan

foydalanish samaradorligini belgilash va bu ko'rsatkichni ushbu mablag'larni boshqa qiymatli kigozlarga sarflashdan olishi mumkin bo'lgan daromad bilan pasayishi ham mahsulotlarga talabning pasaygani va aktivlarning ortiqcha to'planib qolganidan dalolat beradi:

$$R_{xk} = \frac{SF(Z)}{X_{kk}}$$

bunda, X_{kk} qishloq xo'jaligi xususiy kapital qiymati.

Agar xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi ushbu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan yakunlangan hisoblanadi.

3. Permanent kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti korxona faoliyatiga sarflangan kapitaldan (o'zining va karzga olingan) foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

$$R_{pk} = \frac{SF(Z)}{P1 + X_{kk}}$$

bunda, $P1$ -uz mablag manbalari

Agar permanent kapital rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

5. Kapitalning umumiy aylanuvchanligining rentabelligi koeffitsiyenti korxona butun kapitalining aylanish tezligini aks ettiradi. Uning usishi korxona mablag'lari oborotining jadallashganligini yoki narxlarning inflyasion o'sishini anglatadi.

$$R_{kua} = \frac{T}{BYa} < 0$$

bunda: BYa - balans yakuni

Agar kapital umumiy aylanuvchanligining rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

Rentabellikning ko'rsatkichlari ichida sotilgan mahsulotlarning tannarxiga kiritilgan xarajatlar rentabelligi universal ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni ayrim korxona, tarmoq va mahsulotlar bo'yicha hisoblash mumkin.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan quyidagi jadvalda tanishamiz (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili*

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
			2011	2012	2013	+, -	%
1.	Fermer xo'jaliklari soni	dona	538	538	597	59	111
2.	Berkatilgan yer maydon	Ga	41296	41296	41308	12	100,03
3.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	Kishi	16461	15799	15542	-919	94
4.	Asosiy fond	Mln so'm	21546	21185,1	23347	1801	108
5.	Jami daromad	Mln so'm	68930	88011	93533	24603	135,7
6.	Jami xarajat	Mln so'm	51727	70784	74888	23161	144,8
7.	Jami foyda	Mln so'm	17203	17227	18645	1442	108,4
8.	Rentabellik darajasi	%	33,3	24,3	24,9	8,4 punktga kamaygan	

*Manba: Ishtixon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

3.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda fermer xo'jaliklari soni 597 ta, berkitilgan jami yer maydoni 41308 ga, fermer xo'jaliklari a'zolari 15542 mln so'mni tashkil etib, shu yili xo'jalik mahsulot ishlab chiqarish uchun jami 74888 mln so'm sarflab 93533 mln so'm jami daromad olishgan. Natijada 2013 yilda jami foyda 18654 mln so'mni tashkil qilgan. Tuman fermer xo'jaliklarida rentabelik darajasi 2013 yilda 24,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga nisbatan bu ko'rsatkich 8,4 punktga kamaygan. Ushbu kamayish tuman fermer xo'jaliklarida 2013 yil 2011 yilga nisbatan jami xarajatning 23161 mln so'mga yoki 144,8 foizga oshishi hisobiga yuz bergan.

3.2. Uzum ishlab chiqarish rentabellikning hozirgi holati tahlili

Bugungi kunda mamlakatimizda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad – mavjud yer-suv, mehnat resurslari, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, texnika vositalari, bino va inshootlar kabi vositalardan unumli foydalangan holda fermer xo'jaligining oladigan foyda miqdorini oshirishdan iboratdir. Fermer xo'jaligining oladigan foyda miqdorini oshirishning asosiy omillari yer va suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ilg'or tajribalar, agrar sohadagi ilm-fan yutuqlariga tayanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va boshqa xizmatlar ko'rsatish sohalariga investisiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

Uzumchilik mamlakatimiz qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri. O'rta Osiyo respublikalarida, xususan, O'zbekistonda uning roli ayniqsa katta. O'zbekistonning qulay tabiiy sharoiti bu yerda xilma – xil nav uzum yetishtirishga imkon beradi. Tok – qimmatbaho usimlik hisoblanadi. Uning mevalari juda mazali va foydalidir. Ular tarkibida 15 -30 % shakar (tubida sulitilganda esa 40 – 50 gacha), organik kislotalar, pektin, oshlovchi, xushbuy xidli va buyok moddalar, uismlik yelimi, bir qancha fermentlar, A, V, S vitaminlari va mineral tuzlar bo'ladi. Uzum tarkibida yaxshi o'zlashtiriladigan shakar (glyukoza va fruktoza), organik kislotalar va boshqa moddalar bo'limi va tarkibiy qismlarining bir – biriga mos ravishda birikkanligi tufayli ular davolash xususiyatiga ega. Uzumdan xil maqsadlar uchun foydalaniladi. Uzum yangiligicha ko'p ishlatiladi. Undan iyundan boshlab noyabrgacha foydalaniladi. Tashishga chidamliligi va xolodilniklarda, hamda maxsus omborlarda uzoq saqlanishi tufayli uzum yangiligicha kelgusi yilning may oyida ham iste'mol qilinadi. Uzum oziq – ovqat va vino sanoati uchun juda ham yaxshi xom ashyodir. Yangi uzumdan murabbo, kompot, marinadlar tayyorlanadi. Uzum suvi tegishlicha tayyorlanganda eng yaxshi tuyimli parxez va shifobaxsh mahsulotlar sifatida ko'p oylar davomida saqlanishi mumkin. Uzumdan quritilgan qimmatbaho mahsulotlar: urug'li xuraki navlaridan mayiz, urug'siz navlaridan kishmish, juda mayda (6 – 9 mm) urug'siz qora mevali korinka, nav

uzumdan quritilgan korinka olinadi. Uzum turpidan spirt, vino kislota, tanin moddasi, uzum moyi, buyoqlar, yoritgich gaz va boshqalar olinadi. Turp komposti bilan bog' va tokzorlar o'g'itlanadi.

Respublika "Meva – sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish" jamoat Fondi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari va eksport tashkilotlari ta'sischi ligida tashkil etilib, 2011 yil 29 martda Adliya vazirligidan 732-son bilan Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Fondning asosiy maqsadi meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish, yangi bog' va tokzorlarni barpo etish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish, yengil konstruksiyali va al'ternativ yoqilg'i manbalariga ixtisoslashgan issiqxonalarini tashkil etish, meva – sabzavot va uzum mahsulotlarini saqlash, qadoqlash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish maqsadida dehqon va fermer xo'jaliklari, agrofimlar hamda boshqa xo'jalik yuritish subyektlariga imtiyozli kreditlar uchun tijorat banklariga resurslar ajratishdan iborat.

Respublika bo'yicha uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida jami 77,2 ming gektar, shu jumladan, 24,6 ming gektar sanoatbop navli tokzorlar mavjud bo'lib, shundan ichki va tashqi bozorida xaridori bo'lgan vino mahsulotlari ishlab chiqarishga mos noyob navlar 14,7%ni tashkil etadi. Binobarin, soha mutahassislariga bu borada ham ko'plab ishlarni amalga oshirishlariga to'g'ri kelmoqda.

Xo'jalikda foydali belgilari bo'yicha uzum va uzum mahsulotlari yetishtirish tarkibi 27 ta xo'raki va 25 ta vinobop navlaridan tashkil topgan. Hozirgi vaqtda 20 foiz maydonga xo'raki uzum 65 foiz maydonga mayibop va 15 foiz maydonga vinobop navlar ekilmoqda.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarining uzumlikchilikda iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini 3.2.1-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.2.1.-jadval

**Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari uzumlikchilikda iqtisodiy
ko'rsatkichlari tahlili***

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011	2012	2013	(+,-)	%
1.	Ekin maydoni, ga	3170	3170	3170	0	100,0
2.	Yalpi xosil, s	401005	390544	259940	-141065	64,8
3.	Xosildorlik, s/ga	126,5	123,2	82	-44,5	64,8
4.	Yalpi mahsulot qiymati, mln.so'm	16044	25378	28723	12679	179,0
5.	Jami ishlab chiqarish xarajatlari, mln.so'm	11365	18485	20721	9356	182,3
6.	Mahsulotni sotishdan olingan foyda, mln.so'm	4679	6893	8002	3323	171,0
7.	1 gektar hisobiga					
-	daraomad, ming so'm	5061,2	8005,7	9060,9	3999,7	179,0
-	xarajatlar sarfi, ming so'm	3585,2	5831,2	6536,6	2951,4	182,3
-	foyda, ming so'm	1476,0	2174,4	2524,3	1048,3	171,0
8.	1 s. hisobiga					
-	tannarxi, ming so'm	28,3	47,3	79,7	51,4	281,3
-	o'rtacha sotish bahosi, ming so'm	40,0	65,0	110,5	70,5	276,2
-	sotishdan olingan foyda, ming so'm	11,7	17,6	30,8	19,1	263,8
9.	Sotilgan uzumning rentabelligi, %	41,2	37,3	38,6	2,6 punktga kamaygan	

*Manba: Samarqand viloyat Ishtixon tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

3.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari jami 3170 gektarda uzum olib, gektaridan o'rtacha 82 s/ga xosil olib yalpi xosil 259940 s.ni tashkil etgan. Yetishtirilgan uzumning yalpi mahsulot qiymati 28723 mln.so'mni tashkil qilib, jami ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari 20721 mln so'mni tashkil etgan. Natijada tuman fermer xo'jaliklarining uzumchilikda olingan foydasi 8002 mln. so'mni tashkil qilgan.

Tuman fermer xo'jaliklari o'rtacha 1 gektar uzum maydoni hisobiga o'rganiladigan yil(2013)da 3999,1 ming so'm daromad, 2951,4 ming so'm xarajat qilib 2524,3 ming so'm foyda olishgan. Shuningdek, tuman fermer xo'jaliklarida 1s. uzumning tannarxi 51,4 ming so'mni, o'rtacha sotish bahosi 70,5 ming so'mni tashkil qilib, sotishdan olingan foyda 30,8 ming so'mni tashkil etgan. Tuman fermer xo'jaliklarida sotilgan uzum rentabeligi 38,6 foizni tashkil qilgan.

Ushbu ko'rsatkichlarni 2011 yilga nisbatan o'zgarishini ko'radigan bo'lsak, sotilgan uzumning rentabelligi -2,6 punktga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bu kamayishni o'rganganimizda tuman fermer xo'jaliklarida o'rtacha xosildorlikning 44,5 s/ga yoki 35,2 foizga kamayganligi va jami ishlab chiqarish xarajatlarining 9356 mln so'mga yoki 182,3 foizga oshishi hisobiga yuz berganligini ko'rishimiz mumkin.

3.3. Uzunmudavlat rentabellikning omili tahlili

Xo'jaliklarning moliyaviy faoliyatining samaradorligini ifodalovchi nisbiy koeffitsiyent bu-rentabellik ko'rsatkichlaridir. Rentabellik ko'rsatkichlari xo'jalikning daromadlilikini, foydalilikni ifodalaydi. Rentabellik ko'rsatkichlari xo'jalikning u yoki bu xolati buyicha foydalilik yoki zararlik darajasini ta'riflash va ularga baho berish uchun ishlatiladi.

Rentabellik darajasi buyicha bir so'mlik mablag'lar, xarajatlar va fondlar qiymatiga nisbatan olingan foydaning xajmi aniqlanadi. Agar ushbu ko'rsatkich darajasi oshib borsa, foydalilikning oshib borishini bildiradi, bu esa o'z navbatida moliyaviy faoliyat samaradorligini oshganligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari realizatsiyasi rentabelligi koeffitsiyentini aniqlash uchun yuqorida qayd qilinganidek, mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda summasini sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga bo'lish kerak:

$$R_m = \frac{Y_a F}{T_N} = \frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{mahsulotlar tannarxi}}$$

Bu koeffitsiyent 1 so'mlik ishlab chiqarish tannarxi (xarajati) hisobiga mahsulotlarni sotishdan olingan foyda (zararni) ko'rsatadi. Ushbu koeffitsiyent qancha yuqori bo'lsa, foydalilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi, agar kam bo'lsa foydalilik kamayib, samaradorlik pasayadi.

Ushbu koeffitsiyent bo'yicha moliyaviy natijaga baho berish uchun uni uzluksiz ravishda tahlil etib borish kerak.

Hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yiliga solishtirib, uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$\frac{Y_a F_1}{T_N 1} - \frac{Y_a F_o}{T_N o} = +\Delta t_n, yaf$$

Shundan so'ng o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Ushbu rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga yalpi foyda hajmining o'zgarishi bevosita, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi hajmining

o'zgarishi bilvosita ta'sir qiladi. Yalpi foyda hajmining bazis yilidagi hajmiga nisbatan ko'payishi albatta rentabellik koeffitsiyentining oshishiga olib keladi, kamayishi aksincha, uning darajasini pasayishiga sababchi bo'ladi. Ishlab chiqarish tannarxi hajmining ko'payishi rentabellik koeffitsiyentini kamayishiga, uning hajmining kamayishi esa rentabellik darajasining oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan mahsulotlar realizatsiyasi rentabelligini ifodalovchi formuladan ko'rinib turibdiki, uning o'zgarishi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- Sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi so'mmasining o'zgarishi hisobiga (TN)

- Sotilgan mahsulotlar bo'yicha olingan yalpi foyda so'mmasining o'zgarishi hisobiga (YaF)

Ushbu omillarning rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga ta'sirini "Zanjirli almashtirish" usulidan foydalanib, aniqlanadi. Ammo ularning ta'sirini aniqlaganga qadar "Shartli rentabellik koeffitsiyenti"ni aniqlab olish zarur.

Shartli rentabellik koeffitsiyentini aniqlash uchun bazis davridagi yalpi foyda summasini (YaFo) hisobot davridagi sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxiga (TN₁) bo'lish kerak:

$$R_{msh} = \frac{YaFo}{TN_1}$$

Shundan so'ng mahsulotlar realizatsiyasi rentabelli koeffitsiyentini o'zgarishiga omillarning ta'siri "Zanjirli almashtirish" usuli orqali aniqlanadi.

Ushbu rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga "sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi" o'zgarishini ta'sirini "Shartli rentabellik koeffitsiyenti"dan bazis davridagi "rentabellik koeffitsiyenti"ni chiqarib tashlash orqali aniqlanadi:

$$\frac{YaFo}{TN_1} - \frac{YaFo}{TNo} = \pm \Delta tn$$

Agar ushbu koeffitsiyent bazis yiliga nisbatan oshsa, tannarx hajmining kamayishi tufayli yuzaga kelganligini bildiradi, agar u pasaysa - tannarx summasining oshishi hisobiga paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, tannarx

hajmining o'zgarishi rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga bilvosita ta'sir qiladi.

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ikkinchi omilning ya'ni yalpi foyda hajmining o'zgarishini ta'siri aniqlash uchun hisobot davridagi rentabellik koeffitsiyentidan shartli rentabellik koeffitsiyentini chegirib tashlamoq kerak:

$$\frac{Y_{aF_1}}{TN_1} - \frac{Y_{aFo}}{TN_1} = \pm \Delta yaf$$

Agar koeffitsiyent ushbu bazis yiliga nisbatan oshgan bo'lsa, bu yalpi foydaning oshganligi tufayli, kamaygan bo'lsa – yalpi foydaning kamayganligi natijasida yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Demak, yalpi foydaning o'zgarishi rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi.

Ikkala omil ta'sirining yig'indisi mahsulotlar realizatsiyasi rentabelligi koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

Omillar ta'siri aniqlangandan keyin ularning ta'siriga baho berilib, xulosa chiqarilishi kerak. Ammo bo'larning ta'siriga to'liq baho berish uchun yalpi foydaning tashkil bo'lishi va mahsulotlar realizatsiyasi jarayonini chuqur tahlil etish zarur.

Yalpi foydaning o'zi mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farqi tariqasida aniqlanadi. Demak, analitik, birinchidan, sotilgan mahsulotlar tarkibi, strukturasi va ularning baholarini tashkil topish holatini, ikkinchidan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini tarkibi va strukturasi batafsil tahlil etish kerak.

Agar rentabellik koeffitsiyenti pasaygan bo'lsa, bu moddiy sarflar hajmining oshib ketishi, mehnat sarflarining ko'payishi, moddiy resurslardan to'liq foydalanmaslik, tovarlarga bo'lgan talabning pasayishi kabi ko'plab omillar hisobiga sodir bo'lganligini bildiradi. Shuning uchun rentabellik formulasining surati va maxrajidagi ko'rsatkichlarni tarkibi va strukturasi chuqur tahlil etish kerak.

Yuqoridagi nazariy fikrlardan foydalangan holda Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarining uzum ishlab chiqarish rentabelligini omilli tahlil etdik (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida uzum sotish rentabelligini omilli tahlili*

№	Ko'rsatkichlar	2011	2013 yildagi o'rtacha baho va 2011 yildagi o'rtacha tannarxi buyicha	2013	O'zgarishi (+;-)	Sh.j: o'zgarishi	
						Baho hisobiga	Tannarx hisobiga
1	1s. uzumaning o'rtacha sotish bahosi, ming so'm	40,0	110,5	110,5	70,5	x	x
2	1s. uzumning o'rtacha tannarxi, ming so'm	28,3	28,3	79,7	51,4	x	x
3	1s. uzum sotishdan olingan foyda, ming so'm	11,7	82,2	30,8	19,1	x	x
4	Rentabellik darajasi, %	41,2	290,4	38,6	-2,6	249,2	-251,8

*Manba: Samarqand viloyat Ishtixon tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

3.3.1 - jadval ma'lumotlariga ko'ra fermer xo'jaliklarida uzum sotish rentabellik darajasi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan -2,6 punkitga kamaygan, asosan ushba kamayishga ikkita omilning ta'siri ya'ni, birinchi omil 1 s uzumni ishlab chiqarish tannarxi hisobiga -251,8 punktga kamayganligi va ikkinchi omil ya'ni, 1 s mahsulotdan olingan baho hisobiga 249,2 punktga oshganligi hisobiga yuz bergan.

4. UZUM ISHLAB CHIQUARISH RENTABELLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

4.1. Uzum ishlab chiqarish xarajatlarni pasaytirish imkoniyatlaridan foydalanish

Ma'lumki, tuman fermer xo'jaliklarida uzum tannarxini pasaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bu vazifani hal qilishda mavjud yer-suv, mehnat va moddiy resurslarni, ya'ni resurslar salohiyatini to'g'ri sarflash, ularni belgilangan me'yorlariga qat'iy rioya qilish, tejamkorlikni amalda keng qo'llash muhimdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jaliklar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxi kalkulyasiyasini to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati ham juda kattadir.

Fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxi - ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining muxim omili va kursatkichi hisoblanadi. Xar qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi. Tannarx quyidagi hollarda pasayishi mumkin:

1. Agar mahsulot o'zgarmagani xolda, xarajat miqdori kamaysa.
2. Agar yalpi mahsulot miqdori kupayib, xarajatlar o'zgarmasa.
3. Agar yalpi mahsulotining usish sur'ati xarajatlar usish sur'atidan yukori bulsa.

Uzum tannarxini moddiy-pul resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ham pasaytirish lozim. Shu maqsadda ularning tashkil topish xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Tannarx o'z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik yalpi mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar ko'rsatkichlariga bo'linadi. Ushbu ko'rsatkichlardan birinchisini tahlil etish tartibi yuqorida bayon qilindi. Endi bir birlik mahsulot tannarxini ko'rib chiqamiz.

Mahsulot birligining tannarxini tahlilini amalga oshirish uchun solishtirish va zanjirli almashtirish usullaridan foydalanamiz.

Hisobot davridagi bir birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yeki rejalashtirilgan) tannarxiga solishtirib, mutlok va nisbiy

o'zgarishlari aniklanadi. So'ngra «zanjirli almashtirish» usuli orqali omilli tahlil etilib, omillarning ijobiy va salbiy doiralari aniklanib, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir buladi. Bu omillar quyidagilardir:

1. 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi.

2. 1 gektar ekin maydonidan olingan hosil mikdorining (ya'ni hosildorlik darajasining) o'zgarishi.

Tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlaganga qadar 1s mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur. Shartli tannarxni (Zsh) aniqlash uchun hisobot davridagi (yilidagi) 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatlar hajmini (IX₁) bazis davridagi (yilidagi) hosildorlik darajasiga (X₀) bo'lish kerak.

$$Zsh = \frac{IX_1}{X_0}$$

1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatlarni hajmini aniklash uchun u yoki bu ekin turi uchun qilingan jami xarajatlar hajmini jami ekin maydoniga bo'lish kerak.

Shartli tannarx aniqlangandan keyin tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, quyidagi tartibda aniqlash kerak.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 ga ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning shartli tannarxidan uning bazis davridagi tannarxini chegirish kerak.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 tonna mahsulotning hisobot yilidagi tannarxidan shartli tannarxni chegirish kerak.

4.1.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida uzum tannarxining omilli tahlili*

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2013 yildagi 1 ga yer xarajati va 2011 yildagi hosildorlik bo'yicha	2013 yil	O'zgarishi, (+/-)	Sh.j.	
						1 gektar yer xara-jati hisobiga	hosil- dorlik hisobiga
1.	1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	3585,2	6536,6	6536,6	2951,4	x	x
2.	1 ga ekin maydonidan olingan hosil, s/ga	126,5	126,5	82,0	-44,5	x	x
3.	1 s uzum tannarxi, ming so'm	28,3	51,6	79,7	51,4	23,3	28,1

*Manba: Ishtixon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

4.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarishda 2013 yil 2011 yilga nisbatan 1 s. uzum tannarxi 51,4 ming so'mga oshgan bulib bu o'zgarish 1 ga yerga qilingan xarajatning 2951,4 ming so'mga oshgani tannarxning 23,3 so'mga oshishiga sabab bo'lgan bo'lsa, hosildorlikning -44,5 sentnerga kamayishi tannarxni 28,1 ming so'mga oshishiga sabab bo'lgan.

Korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlash kerak.

Vazirlar Mahkamasi strategik ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishini alohida nazoratga olishi, loyiha-smeta hujjatlarining puxta ishlanishini, tanlov savdolarining o'z vaqtida o'tkazilishini, zarur asbob-uskunalarining yetkazib berilishi bo'yicha shartnomalar tuzilishi hamda qurilish-montaj ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlashi zarur.

Hukumatning chorak yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishlarida qabul qilingan Birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturini va modernizasiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari hamda loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan tarmoq jadvallari ijrosi ta'minlanishini ko'rib chiqish va ularning bajarilishi uchun o'z vaqtida tegishli choralar ko'rish tartibini joriy etish darkor.

O'tgan yili protokol bilan belgilangan topshiriqqa binoan mamlakatimizning barcha yirik korxonalari va ishlab chiqarish tarmoqlarida o'tkazilgan texnik audit natijasida 37 mingga yaqin asbob-uskuna va texnologiyalarning jahon miqyosida sinovdan o'tgan, zamonaviy turlariga almashtirilishi lozimligi aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu audit natijalari asosida bir oy muddatda moddiy va ma'naviy jihatdan yeskirgan asbob-uskunalarni yangilash bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan, ularni moliyalashning aniq manbalariga alohida e'tibor qaratgan holda, tarmoq jadvallarini tasdiqlashi zarur.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning samarasi haqida so'z yuritar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, bu yo'nalishda eskidan qolgan va hali-beri ro'y berib kelayotgan oqsoqlik holatlari borligi, birinchi navbatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material va energiya sarfi yuqori darajada saqlanib qolayotgani ayon bo'ladi.

Avvalo, biz tabiat tomonidan berilgan noyob, qayta tiklanmaydigan zahiralar bo'lmish neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni hamon o'rganganimiz yo'q. Bu resurslarning katta qismidan ko'proq yoqilg'i sifatida foydalanyapmiz, xolos.

Muqobil energiya resurslarini izlash va joriy yetish ishlari talab darajasida emas. Umuman, ushbu sohada zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar to'planib qolganini afsus bilan qayd etish kerak.

4.2. Fermer xo'jaliklarida uzum xosildorligini oshirish imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 13 martdagi «Respublikada 2013–2015 yillar davomida uzumchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, tokzorlar maydonlarini kengaytirish, uzumchilikning ilmiy bazasini mustahkamlash, yangi istiqbolli va serhosil navlarni joriy etish, shuningdek, uzumni qayta ishlash hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini ko'paytirish borasidagi vazifalar belgilab berilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjatga asosan respublika bo'yicha 2015 yilga qadar 22,5 ming gektar yangi tokzorlar barpo etish hamda 15,7 ming gektar yaroqsiz tokzorlarni qayta rekonstruksiya qilinadi.

Jumladan, joriy yilda respublikamizda tok ko'chatlari va mevali daraxtlar ko'p ekildi. Yangi ekilgan ko'chatlarga alohida e'tibor qaratib, parvarish ishlarini o'z vaqtida olib borish talab etiladi.

Aprel oyida harorat keskin ko'tarilib isib ketganligi bois, tuproqda namlik me'yorda bo'lmadi. Shu bois may oyida bog'larni sug'orish, qator oralarini kultivasiya qilish, daraxtlar orasini yumshatish, ildiz bachkilarini qirqib tashlash ishlari olib boriladi. Yangi bog'larni tuproq namligiga qarab 1–2 marta sug'orib, har sug'orishdan so'ng qator oralarini 10–12 sm chuqurlikda yumshatish maqsadga muvofiq.

May oyining ikkinchi yarmida hosilli bog'larda erta bahorda yetarli miqdorda azotli o'g'it solinmagan bo'lsa, 50–60 kg azotli, 65–70 kg fosforli hamda 40 kg kaliyli o'g'it solinib, sug'oriladi.

Yosh uzumzorlarda o'suv davri davomida may oxiri, iyun boshida uchinchi barg ustidagi hali yog'ochlanmagan novdalarning uchi chilpib turiladi. Bu shox-shabbaning shakllanishi va tezroq hosilga kirishiga yordam beradi.

Tokzorlarda yosh toklar 2 marta sug'oriladi. Shuningdek, qator oralarini kultivasiya qilish, nihollar orasini yumshatish zarur. Novdalar barcha uzunligi bo'yicha bir tekis rivojlanishi uchun simbag'azlarga gorizontali yoki sal qiya qilib bog'lanishi kerak.

Zanglar yo'g'onlashganda bog'ichlar uzilib ketmasligi va novdalar simga

ishqalanmasligi uchun ular pishiq bo'lishi kerak. Buning uchun bog'ich simbag'azlarga sakkiz raqami shaklida bog'lanadi.

Novdalar 50–60 sm uzunlikka yetganda birinchi xomtok o'tkaziladi, yosh novdalar ikkinchi, ba'zan uchinchi simga bog'lanadi. Ko'k novdaning o'sish kuchi va joylashishiga qarab ikkinchi marotaba uchinchi yoki to'rtinchi simga bog'lanadi.

Tokda to'pgullar paydo bo'lishi bilan xomtok boshlanadi. Novdada to'pgul o'rnida jingalaklarning borligi uning hosil qilmasligidan dalolatdir. Hosil qilmasligi aniq bo'lgan novdalarni erta xomtok qilish qo'shimcha miqdorda novdalar, jumladan, hosil qiladigan novdalarning rivojlanishiga yordam beradi. Xomtokni erta gullaydigan uzum navlaridan boshlash zarur.

Tokning ko'p yillik zanglaridan o'sib chiqqan bachki novdalar birinchi navbatda olib tashlanadi. Bunda tokni shakllantirish va zangning o'rnini bosish uchun kerak bo'ladigan novdalar qoldiriladi. Agar tokda zararlanish natijasida yoki boshqa sabablarga ko'ra, kam novda rivojlangan bo'lsa ham, bachki novdalarning bir qismi oziqlanish yuzasini oshirish uchun qoldiriladi.

Har bir nav uchun tupdagi hosildor va hosil qilmaydigan novdalar nisbati olinadigan hosil va novdaning o'sish kuchini, shuningdek, ekologik va agrotexnik sharoitini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan kishmishbop navlarda har ikkita hosildor novdaga bir-ikkita hosilsiz novda qoldirish kerak.

Lalmi tokzorlarda qish-bahor davridagi yog'ingarchilikni hisobga olgan holda xomtok qilinadi. Bir vaqtning o'zida olinadigan hosil miqdori normallashtiriladi va har bir hosildor novdaga bitta hosil qilmaydigan novda qoldiriladi. Yog'ingarchilik kam bo'lgan yillarda tokning juda kuchsizlanib ketishining oldini olish maqsadida, to'pgulli novdalarning uchdan bir qismini olib tashlash kerak.

Hosilli tokzorlarda ham fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantirishda asosiy me'yorning yarmidan ko'prog'i beriladi: ammosfos 125 kg bo'lsa, fosforli o'g'itlar ko'proq, ya'ni 90 kg, kaliyli o'g'itlar 40–50 kg.

Fosfor va kaliyli o'g'itlar nisbatan ko'proq berilishi tok novdalarining to'liq yetilishi, kasalliklarga chidamliligini oshirish va mavsum oxirida novdalarning pishishi hamda kelgusi yil hosiliga puxta zamin yaratiladi. Mabodo mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish imkoni bo'lmasa, mahalliy o'g'itlardan foydalanish kerak. Bunda har bir gektar bog' va tokzorlarga sug'orish bilan birga 5–6 t go'ng oqiziladi.

Kul (oidium) kasalligining oldini olish maqsadida, toklar gullagunga qadar 1–2 marta tuyilgan oltingugurt changlatiladi (1 gektarga 20–25 kg sarfi bilan). Bunda Topaz (100 l suvga 50 g) yoki Vektra (30 g) preparatlarini ham purkash mumkin.

May oyining ikkinchi yarmida olma qurti va nok shira burgasiga qarshi purkash ishlari takrorlanadi. Bunda yuqorida bayon etilgan preparatlar qo'llaniladi.

Behizorlarda monilioz kasalligiga qarshi 1 foizli Bordo suyuqligi bilan har 8–10 kunda purkash takrorlanadi. Yuqoridagi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazish bilan tokzorlarimizdan yuqori va sifatli hosil olishga erishiladi.

4.3. Uzum yetishtirish va uni saqlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Uzumchilik – mamlakatimiz qishloq xo'jaligining muhim daromadli tarmog'i. Bizdagi qulay tabiiy sharoit xilma-xil uzum nav-lari yetishtirishga imkon beradi. U qimmatbaho o'simlik. Mevasi juda mazali va foydali. Tarkibida 15-30 % shakar, asosan glyukoza, tupida so'litilsa 40-50 % gacha, organik kislotalar, pektin, oshlovchi, xushbo'y hidli va bo'yoq moddalar, o'simlik yelimi, fermentlar, A, V, S vitaminlar, mineral tuzlar bo'lib, davolash ahamiyati alohida.

Oziq-ovqat, vinolar, shampan, konyaklar, murabbo, kompot, marinad, shinni, asal to'planadi. Mayiz, kishmish qilinadi.

Tokning qimmatli ekinligi yana shundaki, u tez (2-3 yilda) hosilga kirib, uzoq (80-100 yilgacha) yashaydi. Ildizi baquvvat, chuqur joylashgan, shuning uchun qurg'oqchilikka chidamli, meliorativ ahamiyati kata, qishloq xo'jaligiga kam yaroqli yerlarda o'stiriladi.

Tok eng qadimgi gulli o'simliklarga kirib, oilasi Vitaceae, avlodi Vitis, ekiladigan turi V. vinifera (Yevropa-Osiyo turi). Dunyo bo'yicha 10 mln, Hamdo'stlik mamlakatlarida 1 mln, O'zbekistonda 217000 gektar maydonni egallab, respublikamizda 200-300, hatto 1000 gektargacha tokzorga ega xo'jaliklar mavjud.

Tok liana o'simligi (chirmashib o'suvchi) bo'lib, yer ostki (ildiz sistemasi) va yer ustki qism (zang)dan iborat. Uning vegetativ va generativ organlari bo'ladi. Vegetativ organlariga: ildiz, zang, barglar, generativ organlariga to'pgul, gullar, shingil, g'ujum va urug'lar kiradi.

Tok tanasi har xil yoshdagi novdalardan iborat.

Ko'p yillik novdalar tokni asosini tashkil etadi. U zang yoki kunda deyiladi. Unda 1, 2 yillik 3, 4 yillik novdalar joylashib, 1 yilliklar hosil novdalardir.

Tokning yillik rivojlanishi 6 ta fazadan: 1. Shira harakati; 2. Kurtaklarning yozilishi va novdalarning o'sishi; 3. Gullash; 4. G'ujumlarning o'sishi; 5. G'ujumlarning pishishi; 6. Novdalarning pishishidan iborat.

Tok o'simligi 8-9° da shira harakati boshlanib, 10° da kurtak bo'rtadi, 11-12° da yoziladi, 25-30° qulay haroratdir. 40° zararali. 3-5° sovuq barg-mevalarni zararlaydi.

Oktyabr-noyabrda 8-12° sovuq ko'milmagan tok kurtak va novdalarini zararlaydi. Qishda novdalar 10-22° sovuqdan past bo'lsa zararlanadi. Harorat 17° dan pasaysa ko'miladi.

To'pgullari 0-0,5° dan zararlanadi.

Namlik 450 mm dan oshsa sug'orilmaydi.

Tok navlari botanik, biologik, xo'jalik belgi-xususiyatlariga qarab 3 guruhga bo'linadi:

1. Xo'raki navlar
2. Mayizbop navlar
3. Vinobop navlar

Tok asosan qalamchalaridan ko'paytiriladi. Qalamchalar xo'jalik ahamiyatiga ega uzumlardan yoki maxsus tokzorlardan tayyorlanadi. Uzunligi $l = 50-60$, diametri $d = 5-15$ mm, bo'g'im oraliqlari 6-12 sm qalamchalar olinadi. Bular navga xos, sog'lom, qarab ko'rilganda zararlanmagan, yaxshi pishgan bo'lishi shart. Qalamchalar kuzda va bahorda tayyorlanadi.

Tokzor ko'p yillar uchun barpo etiladi. Uni hosildorligi, uzoq yashashi va daromad berishi ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Tashkil etishdagi xato bir necha yildan so'ng sezilib, uni tuzatib bo'lmaydi yoki qiyin tuzatiladi.

Shuning uchun tokzor qat'iy reja asosida barpo etiladi. Unda vazifalar, joy tuproq-iqlim ta'rifi, tok biologiyasi, tashkiliy-xo'jalik sharoitlari hisobga olinadi. Bundan tashqari ko'chat o'tkazishdan oldin navlarni tanlash, joylashtirish, yerni tayyorlash, ko'chat o'tkazish, parvarishlash ham hisobga olinadi.

1. Joy tanlash. 2-2,5 m tuproq qatlami, sizot suvlar sathi 2,5-3,0 m bo'lishi shart.
2. Assortiment tanlash. 27 ta xo'raki, kishmish, 25 vinobop navlar rayonlashtirilgan.

Maydonning 20 % xo'raki, 65 % i kishmish, 15 % i vinobop nav-lar bilan band.

Assortiment tanlashda funksional urg'ochi gulli navlar boshqa navlardan changlanishini unutmash lozim.

Bularning 1-2 qatoridan so'ng 1 qator changlovchi navlar ekiladi.

Charos, nimrang, kattaqo'rg'oni funksional urg'ochi gulli. Bular uchun oq, qora kishmishlar yaxshi changlovchi hisoblanadi.

Tok o'tkazilgandan so'ng ularni yaxshi tutib ketishini, o'sishini, ularning hosilga tez kirishini ta'minlash lozim. Shu maqsadda o'sayotgan novdalar qoziqlarga bog'lab qo'yiladi, tokzor tup-roq'i doimo yumshoq, begona o'tlardan toza bo'lishi lozim. Tok o'tkazilgan yili yosh tokzor 2 tomonlama ishlanadi. Kelgusi yil 3-4 kultivasiya, 2-3 chopiq qilinadi. 1, 2 yillar yosh tokzor orasiga ertagi sabzavot, kartoshka va poliz ekinlarini ekish mumkin.

Yosh tokzorlar 8-10 marta, shag'alli yerlarda 15-18 martagacha sug'oriladi.

Ko'chatlar o'tkazilgandan so'ng 1-yili ularda 4-5 ta baquvvat novda rivojlantiriladi, qolgan novdalar kesib tashlanadi.

Tok tupida 3-yili 3-5 ta zang hosil bo'ladi, ularning har birida 100-150 ta kurtagi bo'lgan 2-3 ta hosil novdalari paydo bo'ladi shu yilning o'zida gektaridan 100-150 s hosil beradi.

Shuning uchun yosh tokzorlar 3-yildan boshlab hosillik tokzorlardek parvarish qilina boshlaydi.

Yerni ishlash: Kuzda va bahorda qator oralarini ishlashni, chizellashni kultivasiyani, ag'darmasdan haydashni, tuplar atrofini chopishni, yumshatishni o'z ichiga oladi.

Sug'orish: Hosilli tok o'suv davrida 4-6 marta, shag'alli yerlarda 8-10 marta, sizot suvlari yuza yerlarda 2-3 marta sug'oriladi.

O'stiruvchi moddalardan foydalanish: To'pgulga 1 l suvga 100 mg (0,1 g) gibberillin aralashtirib botirilsa, hosil 40-50 % gacha oshib, sifati yaxshilanadi. 1 gektarga 30 g gibberillin sarflanadi.

O'g'itlash: $N_{120} P_{60} K_{30}$ kg/ga beriladi.

Tokni o'stirish sistemasi: Aymoqi, daraxtlar bilan birga o'tqazish, qoziqlarga osib o'stirish, yerda o'stirish, ishkonda o'stirish, so'rida (voishda) o'stirish, vertikal so'ri (simbag'azlar)da o'stirish.

Tokka shakl berish: Kallasimon, 1 va 2 tomonli, kosasimon, kordon va yelpig'ichsimon shakl beriladi

Tokni kesish: Asosiy agrotadbir, har yili o'tkaziladi.

Tokning yashil qismlarida olib boriladigan ishlar. Xomtok, qo'ltiq novdalarni olib tashlash, novdalarning uchini chilpish, qo'ltiq novdalarda hosil yetishtirish, novdalarning uchini kesish, barglarni, uzum boshlarni siyraklashtirish.

Qo'shimcha sun'iy changlatish. 10-15 % hosilni oshradi.

Sovuqdan asrash, xatosini to'ldirish, ko'mish kabilar.

Uzum hosilini chamalagandan so'ng uziladi. Chamalash uchun dalada har 5-qator, qatorda esa har 5-tup belgilanib, ulardagi uzum boshlari sanaladi. ular yig'indisi tuplar sonining o'rtacha bir tupdagi uzum boshlar soni aniqlanib, o'rtacha uzum boshlar soni aniqlanib, o'rtacha uzumi bosh vazniga ko'paytiriladi.

Hosildan foydalanishga qarab har bir navning hosilini yig'ish muddati to'g'ri belgilanishi lozim.

Yangilicha shu yerda iste'mol qilinsa, uzum to'la navga xos o'lchamga va rangga ega bo'lishi lozim.

Uzoqqa jo'natiladigan bo'lsa, to'la pishishgacha uzib olinishi va kamida 15 % shakarga ega bo'lishi kerak.

Chillakida 10-11 %, Husayni lundada – 12-13 %, Echkemarda – 11 % bo'lganda uziladi.

Vinochilik sanoati uchun uzum uzish muddati qanday vinolar tayyorlanishiga bog'liq. Spirtsiz vinolar uchun erta avgust-sentyabrda, yengil desert vinolar tayyorlash uchun – sentyabr o'rtasida, kuchli va og'ir likyor vinolar uchun sentyabr oxiri – oktyabrda uzib olinadi. Vино tayyorlash uchun O'zbekistonda uzum tarkibida shakar kondisiyasiga binoat 16-19 dan 22-26 % gacha belgilangan.

Mayiz va konsentratlar uchun uzum kech uziladi. Oq kishmishda shakar 22 % dan kam bo'lmasin.

Uzumni saqlashning bir qancha usullari mavjud:

1. Eng yaxshi harorat $0,5-1^0$ va havo namligi 85-90 % bo'dgan maxsus binolarda ochiq va yopiq yashiklarda saqlashdir.
2. Xo'jaliklarda quruq joyda uzum osib saqlanadi. Oltingugurt poroshogi doimo har 10 kunda dudlab turiladi.
3. Qumda ko'mib saqlash.
4. Novda barglari bilan saqlash (suvda turadi novda kesilgan joyi, vaqti-vaqti bilan kesib turiladi).
5. Uzum tupdan uzib olinmasdan ham saqlanadi (tupga yaqin joydan chukur kovlanib, uchtiga ishkomb qilinadi).

5. FERMER XO'JALIKLARIDA UZUM ISHLAB CHIQARISHDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

Mehnat muhofazasiga oid qonunlar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona va tashkilotlarga, kooperativlar, dehqon-fermer xo'jaliklarida yollanib ishlayotgan yoki a'zo bo'lgan holda mehnat qilayotgan barcha fuqarolarga, ishlab chiqarish amaliyoti davrida korxonalarga jalb etilgan o'quvchilar va talabalarga, korxonadagi ishlarga jalb etilgan harbiy xizmatchilarga, muqobil xizmatni o'tayotgan shaxslarga, shuningdek davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan boshqa ishlarga jalb etilgan barcha fuqarolar mehnatini muhofazalashga nisbatan tadbiriq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati asoslari bayon etilgan bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'ligi ustuvorligi bu siyosatning bosh qoidalaridan birini tashkil etadi.

Mehnat kodeksining 211-moddasiga ko'ra, mehnat muhofazasi mexdat munosabatlarining muhim tarkibiy elementi hisoblanib, undan ish beruvchi uchun ham, xodim uchun ham muhim huquqlar va majburiyatlar vujudga keladi.

Mehnat kodeksining 212-moddasida mehnat muhofazasi yuzasidan xodimlarning majburiyatlari ko'rsatilgan bo'lib unga ko'ra, "Xodim mehnatni muhofaza qilish normalariga, qoida va yo'riqnomalariga, shuningdek ma'muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi farmoyishlariga rioya qilishi, olingan shaxsiy vositalardan foydalanishi, insonlar hayoti va sog'ligiga bevosita xavf soladigan har qanday holat haqida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog'liq holda sodir bo'lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida o'zining bevosita rahbarini (brigadiri, ustasi, uchastka boshlig'i va boshqalarni) darhol xabardor qilishi shart". Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga qat'iy amal qilish xodimning burchi bo'lib, unga rioya etmaslik intizomiy javobgarlikka va intizomiy jazo qo'llanishiga sabab bo'ladi.

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishini tekshirib borish va zarur shart-sharoitlari bilan ta'minlash ish beruvchining majburiyatlari sirasiga kiradi.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunning 9-moddasida korxonalar va obyektlarni loyihalash, qurish va ishlatishda, ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash va ta'mirlashda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash choralari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra mehnat muhofazasi talablarga javob bermaydigan korxona va obyektlarning ishga tushishi ta'qiqlanganligi ko'rsatilgan.

Sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan profilaktik choralar jumlasiga yuqoridagilardan tashqari, korxonalarda texnika xavfsizligini ta'minlash xizmati bo'lishi lozimligi haqidagi (mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunning 14-moddasy) mehnatni muhofaza qilishga oid yo'riqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi, xodimlarning yakka himoyalaniish vositalari bilan ta'minlanishlari va bu vositalardan foydalanish xodim uchun majburiy ekanligi, zararli ishlab chiqarish sharoitlarida band bo'lgan xodimlarning kasallikka chalinishlarining oldini olish maqsadida belgilangan me'yorlarga muvofiq profilaktik oziq-ovqat mahsulotlari, sho'r suv, sut va sut mahsulotlari bilan ta'minlanishlari, ayrim toifaga mansub yoki zararli mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarni ishga qabul qilish paytida hamda ish davomida vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish lozimligi, sog'lig'i holatiga ko'ra xodimlarni yengilroq ishga o'tkazib turilishi kabi tadbirlar ham kiradi.

Mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va ishlovchilar sog'ligi hamda hayotiga xavf tug'diruvchi korxonalar faoliyati yoki ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, ular mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirilgunga qadar, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakolatli idoralar tomonidan to'xtatib qo'yilishi kerak.

Ish beruvchi mehnat shartnomasi tuzish chog'ida dastlabki tarzda va keyinchalik (ish davomida) vaqti-vaqti bilan quyidagi xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart:

- o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar;
- oltmish yoshga to'lgan erkaklar, ellik besh yoshga to'lgan ayollar;
- nogironlar;
- mehnat sharoiti noqulay ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlar;
- oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlardagi ishlarda band bo'lganlar;
- umumta'lim maktablari, maktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan mashg'ul bo'lgan pedagog va boshqa xodimlari.

Mehnat sharoiti noqulay ishlar va bajarayotganida dastlabki tarzda va vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tilishi lozim bo'lgan boshqa ishlarning ro'yxati va ularni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tishidan bo'yin tovlashga haqli emaslar. Ish beruvchi tibbiy ko'rikdan o'tishdan yoki tibbiy komissiyalarning tekshiruvlar natijasida bergan tavsiyalarni bajarishdan bosh tortgan xodimlarni ishga qo'ymaslikka haqlidir.

Xodimlar mehnatidan ularning sog'ligi holatiga to'g'ri kelmaydigan ishlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Agar xodim o'z sog'ligining holati mehnat sharoiti bilan bog'liq holda yomonlashgan deb hisoblasa, u navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tkazishni talab qilishga haklidir. Tibbiy ko'rikdan o'tishi munosabati bilan xodimlar chiqimdor bo'lmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Uzbekiston Kasaba uyushmalari Federasiyasi Kengashi bilan birgalikda mehnatni, atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan standartlari, qoida va me'yorlarini ishlab chiqish va qabul qilish yo'li bilan ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablar darajasini belgilaydi, shuningdek kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar, kasb kasalliklarining oldini olishga oid

respublikaning ansq maqsadga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqadi va moliyaviy ta'minlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Vazirliklar va idoralar tegishli kasaba uyushmasi idoralari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilashga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqadilar va moliyaviy ta'minlaydilar.

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o'zgarish bo'layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi, yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p bosqichli talim tizimiga binoan oliygohlarda tayyorlanadigan bakalavrlar uchun o'quv rejasiga «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning bilimini chuqurlashtirilishiga yordam berishi so'zsizdir.

Xayotiy faoliyat xavfsizligi fani o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muxit bilan alokasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab olgandir. Xayotiy faoliyat xavfsizligi prinsip va usullar asosida: baxsiz, xodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va xal qiladigan fandir. XFX-bu xar qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

O'zbekiston Davlat standarti ishlab chiqish va joriy etish ustida ish olib bormokda. Bu majmualar ishlab chiqarish uskunalari va jarayonlariga, ishlovchilarni himoyalash vositalariga hamda korxonalarning mehnat muhofazasi sohasidagi ishni tashkil qilishga taalluqlidir.

Yangi texnologik jarayonlarning yaratilish, yangi ashyolarning ko'llanishi prinsip jihatdan yangicha yondoshuvni, mehnat xavfsizligini taminlashning yangi usullar xamda vositalarini ishlab chikishni, shuningdek ana shu masalalar bo'yicha yangi me'yortivlarni yaratishni taqozo etadi. Shu sababli mehnat muhofazasiga doir meyoriy xujjatlarni tartibga solish zarurati paydo bo'ldi. Bu hujjatlar davlat standartlashtirish sistemasining tarkibiy qismiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz agrar tarmog'ida bozor tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan agroiqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, yetishtirilgan mahsulot va mol-mulkka xususiy egalik qilgan holda, yer uchastkalaridan uzoq muddatli ijara asosida foydalanib ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, samarali natijalarga erishib kelayotgan fermer xo'jaliklarining soni tobora ortib bormoqda.

Yurtimizda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyati azaldan uzumlari bilan dong taratgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida viloyatning barcha tumanlarida uzumchilikni rivojlantirish, bu sohani qishloq iqtisodiyotining muhim yo'nalishiga aylantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirilib, salmoqli natijalarga erishildi.

Shuningdek, uzum ishlab chiqarish rentabelligi fermer xo'jaliklarida qanday holatda ekanligini Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari misolida tahlil qildik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda fermer xo'jaliklari soni 597 ta, berkitilgan jami yer maydoni 41308 ga, fermer xo'jaliklari a'zolari 15542 mln so'mni tashkil etib, shu yili xo'jalik mahsulot ishlab chiqarish uchun jami 74888 mln so'm sarflab 93533 mln so'm jami daromad olishgan. Natijada 2013 yilda jami foyda 18654 mln so'mni tashkil qilgan. Tuman fermer xo'jaliklarida rentabelik darajasi 2013 yilda 24,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga nisbatan bu ko'rsatkich 8,4 punktga kamaygan. Ushbu kamayish tuman fermer xo'jaliklarida 2013 yil 2011 yilga nisbatan jami xarajatning 23161 mln so'mga yoki 144,8 foizga oshishi hisobiga yuz bergan.

2. 2013 yilda Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari jami 3170 gektarda uzum olib, gektaridan o'rtacha 82 s/ga xosil olib yalpi xosil 259940 s.ni tashkil etgan.

Yetishtirilgan uzumning yalpi mahsulot qiymati 28723 mln.so'mni tashkil qilib, jami ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari 20721 mln so'mni tashkil etgan. Natijada tuman fermer xo'jaliklarining uzumchilikda olingan foydasi 8002 mln. so'mni tashkil qilgan.

3. Tuman fermer xo'jaliklari o'rtacha 1 gektar uzum maydoni hisobiga o'rganiladigan yil(2013)da 3999,1 ming so'm daromad, 2951,4 ming so'm xarajat qilib 2524,3 ming so'm foyda olishgan. Shuningdek, tuman fermer xo'jaliklarida 1s. uzumning tannarxi 51,4 ming so'mni, o'rtacha sotish bahosi 70,5 ming so'mni tashkil qilib, sotishdan olingan foyda 30,8 ming so'mni tashkil etgan. Tuman fermer xo'jaliklarida sotilgan uzum rentabeligi 38,6 foizni tashkil qilgan.

4. 2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishini ko'radigan bo'lsak, sotilgan uzumning rentabelligi -2,6 punktga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bu kamayishni o'rganganimizda tuman fermer xo'jaliklarida o'rtacha xosildorlikning -44,5 s/ga yoki 35,2 foizga kamayganligi va jami ishlab chiqarish xarajatlarining 9356 mln so'mga yoki 182,3 foizga oshishi hisobiga yuz bergan.

5. Tuman fermer xo'jaliklarida uzum sotish rentabellik darajasi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 2,6 punktga kamaygan, asosan ushba kamayishga ikkita omilning ta'siri ya'ni, birinchi omil 1 s uzumni ishlab chiqarish tannarxi hisobiga 251,8 punktga kamayganligi va ikkinchi omil ya'ni, 1 s mahsulotdan olingan baho hisobiga 249,2 punktga oshganligi hisobiga yuz bergan.

6. Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarishda 2013 yil 2011 yilga nisbatan 1 s. uzum tannarxi 51,4 ming so'mga oshgan bulib bu o'zgarish 1 ga yerga qilangan xarajatning 2951,4 ming so'mga oshgani tannarxning 23,3 so'mga oshishiga sabab bo'lgan bo'lsa, hosildorlikning 44,5 sentnerga kamayishi tannarxni 28,1 ming so'mga oshishiga sabab bo'lgan.

Taklif etilgan fikr va mulohazalarimiz ishlab chiqarishga joriy etilsa, fermer xo'jaligi uchun foydadan xoli bo'lmas:

1. Yer resurslaridan unumli foydalanish, olinadigan hosilni ko'paytirish maqsadida:

- Mintaqa tuproq-iqlim sharoitiga mos ekinlarni, navlarni tanlash hamda ularga tegishli agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazish.

- Tuproq unumdorligini oshirishda organik, mineral o'g'itlardan oqilona foydalanish hamda siderat ekinlarni ekishni qo'llash.

- Qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni takomillashtirish, hosildorlikni oshirish;

- Tokzorlarning siyraklik darajasini qisqartirish.

- Kam hosilli tokzorlarni rekonstruksiya qilish va yangi intensiv tipdagi navlarni ekish. Adirli hududlarda qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan olma, nok, yong'oq, bodom, olxo'ri va boshqa mevali bog'larni tashkil qilish.

2. Fermer xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish emas, balki ularni qayta ishlashni ham yo'lga qo'yish shu bilan birga mehnat unumdorligini yanada oshirish uchun xodimlarni moddiy rag'batlantirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3. Fermer xo'jaliklarida uzumchilik xarajatlarini asosiy qismi «Boshqa xarajatlar» moddasida yig'iladi. Shuning uchun uzumchilik xarajatlari hisobini «Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot» (1-FX shakli) da ko'rsatilgan xarajatlar bo'yicha tashkil etishga erishish lozim.

4. Tumani fermer xo'jaliklarida uzumchilik ishlab chiqarish rentabelligini oshirish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri tashkil etish, sarflanayotgan o'g'it, yoqilg'ilarni belgilangan me'yorlarda bo'lishini nazorat qilish, texnologik jarayonlarni vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash, resurslar tejamkorligiga rioya qilish va mehnat unumdorligini oshirish lozim.

5. Uzumchilik tannarxini pasaytirish. Buning uchun xarajatlar tarkibidagi moddiy xarajatlardan me'yor bo'yicha foydalanish, ilmiy-tadqiqot va fan yangiliklarini joriy etib, hosildorlikni oshirish tadbirlarini qo'llash va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu takliflarimizni tuman fermer xo'jaliklarida joriy qilinishi uzumchilik ishlab chiqarish rentabelligining oshishiga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida. (Yangi tahrirda). // Xalq so'zi, 26.08.2004.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010.
5. Karimov I. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 28.01.2010.
6. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi, 22.01.2011.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi, 20.01.2012.
9. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-

yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi,18.01.2014.

10. Abdullayev A.A., Aybeshov X.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –Andijon: Aloqachi, 2008. -187 b.

11. Azizqulov B. Ilg'or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№ 9. -35-b.

12. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

13. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. –T.: Istiqol, 2004.

14. Mullajonov A. Meva-sabzavotchilik va sabzavotchilik sohasini rivojlantirish, ularni qayta ishlash va unda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha vazifalar. –Samarqand, 2009.

15. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Ahrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. –Samarqand, 2009.

16. Nuriddinova Sh. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning natija va istiqbollari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№ 11. -24-b.

17. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -267 b.

18. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -276 b.

19. Qudratov T., Qudratova O., Fayziyeva N., Qudratova I. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. O'quv qo'llanma. –Samarqand, 2008.

20. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. -416 b.

21. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari

22. Ishtixon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hisobot ma'lumotlari

23. Ishtixon tumani Statistika bo'limi hisobot ma'lumotlari

24. Internet saytlari:

- 24.1. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti
- 24.2. www.edu.uz - Oliy ta'lim sayti
- 24.3. www.lex.uz –qonun hujjatlari sayti
- 24.4. www.samqxi.uz– Samarqand qishloq xo'jalik instituti sayti
- 24.5. www.uz.bir.uz, – Biznes informasion resurslar saytlari
- 24.6. www.uza.uz – O'zbekiston Axborot agentligi sayti
- 24.7. www.uzreport.com – biznes hisobot portali
- 24.8. www.ziyonet.uz – Ziyonet ta'lim portali